## O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Ayrim ota-onalar farzandi o'qituvchisidan qattiqroq dakki eshitsa, maktabga yugurib kelishadi. Ammo o'sha ona yoki ota har chorakda o'tkaziladigan ota-onalar majlisida farzandining o'zlashtirishi, tarbiyasi haqida so'rashga kelmaydi.

4-bet

## "Zamonaviy maktab" qanday quriladi?



6-bet

## "Abituriyentlar shaharchasi"dagi hayotim

Jazo shunday — abituriyent bu mavzularni qayta o'qiydi va test topshiradi. Natijasi qoniqarli bo'lgandagina darsxonadan ketishiga ruxsat beriladi.

9-bet


*Kuch — bilim va tafakkurda*

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 25-may, shanba № 40 (9209)

Xalq ziyolilari gazetasi




## Kitob o'qish oliy saodatdir

12-bet





## "Kadishev"ga qanday boriladi?

8-bet

# Test sinovlariga oid ommabop savollarga javoblar

## Abituriyentlar diqqatiga!

1. Oldingi yillarda ta'lim muassasalarini tugatgan abituriyentlar eng kam ish haqining 50 foizi miqdoridagi summani qayerga to'laydi? Joylardagi Davlat xizmatlari markazlarigami?

2. 2019/2020-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish uchun ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari tomonidan tavsiya etilgan darsliklardan foydalanish mumkin (ro'yxat DTM saytida va "Ma'rifat" gazetasida (10-aprel) e'lon qilingan).

3. Joriy yildan boshlab abituriyentga 3 tagacha oliy ta'lim yo'nalishini tanlash huquqi berilmoqda. Ta'lim yo'nalishlarini tanlashda oliy ta'lim muassasalarining soni, jug'rofiy joylashuvi ahamiyat kasb etmaydi.

4. Agar abituriyentning test sinovi natijalari tanlangan ta'lim yo'nalishining birinchisiga to'lov-kontrakt, ikkinchisiga davlat granti bo'yicha o'qishga yetsa ham, u birinchi ustuvorlik bergan ta'lim yo'nalishida to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etiladi. Ikkinchisida davlat granti bo'yicha o'qishi mumkin emas.



11-bet



# Pedagog kadrlar attestatsiyasi

### *Natija va xulosalar*

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan tasarrufida ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda pedagog kadrlarning navbatdagi attestatsiya jarayoni yuqori saviyada o'tkazildi.

Jumladan, 2019-yil mart—iyun oylarida attestatsiyadan o'tadigan pedagog kadrlar to'g'risidagi ma'lumotlarning (*http://pka.tdi.uz/*-axborot tizimi) elektron bazasi yaratilib, unga **80 mingga yaqin pedagog** haqidagi ma'lumot kiritildi. Bu jarayonning shaffof va adolatli, ma'lumotlarning barcha uchun ochiq bo'lishini ta'minladi.

Shuningdek, Maktabgacha ta'lim, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sport vazirliklari, Kasb-hunar ta'limi markazi hamda O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi bilan pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha qo'shma qarorlar imzolandi. Nomzodlarni jarayon bilan yaqindan tanishtirish, yangiliklardan xabardor etish maqsadida o'quv-seminar, vebinarlar tashkil etildi.

7-bet

# INNOVATSION G'OYALARNI ILM-FAN VA SANOATGA KENG TATBIQ ETISH – ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINING BOSH MEZONI

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-may kuni poytaxtimizning Olmazor tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.***

Davlatimiz rahbari dastlab Talabalar shaharchasiga bordi. Bu yerda har yili minglab yosh mutaxassis hayotga yo'llanma oladi.

Joriy yilda Talabalar shaharchasida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Yo'l va yo'laklar ta'mirlanib, yoritish ustunlari, o'rindiqlar o'rnatildi, 400 o'rinli avtoturargoh qurildi. Hududga ko'p yillik va mavsumiy gullar, manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Bugungi kunda Talabalar shaharchasida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi binolari, kollej va litseylar, sport majmualari joylashgan. Ikki universitetda qariyb 25 ming talaba tahsil oladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan shaharcha hududining boshlanishida, "Beruniy" metro bekati yonida Beruniy maydoni barpo etildi. Abu Rayhon Beruniyning Texnika universiteti oldidagi haykali shu yerga ko'chirilib, atrofi obodonlashtirildi. Bular o'ziga xos majmua hosil qilib, Talabalar shaharchasi ilmiy salohiyatining yana bir ramzi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari bu yerda olib borilgan ishlarni ko'zdan kechirdi. Alloma haykalining Talabalar shaharchasi ostonasiga qo'yilishi mamlakatimizda ilm-fanga qaratilayotgan e'tibor ramzi bo'lib, bugungi yoshlarda ulug' ajdodlar bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Prezidentimiz 2017-yil 2-dekabr kuni Innovatsion rivojlanish vazirligi binosi qurilishi bilan tanishib, mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni rivojlantirish, innovatsion g'oya va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan zarur ko'rsatmalar bergan edi. Bugungi kunda bu borada izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlik ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, xorijning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ixtisoslashgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, texnoparklar va boshqa innovatsion tuzilmalar tashkil etish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish yuzasidan tizimli chora-tadbirlarni ko'rmoqda.

Vazirlikda iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion ehtiyojlarini o'rganish, yoshlar innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash xizmatlari, masofaviy ta'lim kurslari yo'lga qo'yiladi. Yangi ishlanma va texnologiyalar namoyishi, startap loyihalar iqtidorli yoshlarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Binoning birinchi qavatida kutubxona, amfiteatr, xoll, ko'rgazmalar zali joylashadi. Yuqori qavatlarda kovorking va startap hududlar, internet laboratoriyalar, anjumanlar zallari bo'ladi. Aerokosmik laboratoriya, ustaxona, reklama agentligi ham tashkil etiladi.

Vazirlikni bejiz Talabalar shaharchasiga joylashtirmadik. Bu yerdagi oliy o'quv yurtlarida minglab iqtidorli yoshlar, tadqiqotchilar, olimlar ilmiy ish bilan mashg'ul. Ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlab, har bir sohada yangilik yaratish kerak. Innovatsion rivojlanish vazirligi bu borada ilmiy markaz, baza bo'lishi zarur, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Vazirlik bog'ining dizayni ham yangicha asosda ishlab chiqilgan bo'lib, bu yerga kelganlar miniatyurali innovatsiyalar bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Boqqa internet tarmog'iga ega o'rindiqlar, quyosh panelli yoritkichlar, havo tozalash ustunlari, mobil uskunalarni quvvatlovchi qurilmalar o'rnatiladi, bruschatkali yo'laklar tunda o'zini o'zi yoritadi.

Shu yerda vazirlik va Jarayonlarni avtomatlashtirish milliy assotsiatsiyasi — NAPA tomonidan xorijiy markazlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi rejalashtirilgan innovatsion texnopark taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ushbu texnoparkda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rganayotgan va bu sohada ishlayotganlar uchun innovatsion g'oyalarini ilgari surish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida maqbul muhit va infratuzilma yaratiladi.

Yangi texnologiyalar yaratish va transfer qilish uchun vazirlikka ko'makchi sifatida "NAPA Team" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilmoqda. Ushbu korxona innovatsion g'oyalarni pishitib, ularni startap mahsulotga aylantiradi va kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltiradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu faoliyatdan yiliga 1 million dollarlik eksport daromadi ko'rish ko'zda tutilmoqda.

Prezidentimiz innovatsion g'oyalar o'z o'zidan ishlab chiqarishga yetib bormasligini, buning uchun mablag', xaridor topish zarurligini ta'kidladi. Xitoyning "Huawei" kompaniyasi bilan hamkorlikda tajribadan o'tgan innovatsiyalarni jalb etish, xorijda ish yuritayotgan salohiyatli tadqiqotchilarni chaqirish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur topshiriqlar berdi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Prezidentimiz oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalar, mazkur oliy ta'lim dargohini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Kadrlar tayyorlash sohalari tarkibiy tuzilishi loyihasida yoshlarni oliy o'quv yurtlariga yanada ko'proq qamrab olish bo'yicha batafsil ma'lumot berildi. 2018-2019-o'quv yilida mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga 96 ming 950 talaba qabul qilingan bo'lsa, 2019-2020-o'quv yilida 123 ming 170 nafar yigit-qiz o'qishga jalb etiladi. Bu ko'rsatkichni 2022-2023-o'quv yilida 180 mingtaga yetkazish rejalashtirilgan.

Oliy ta'limga innovatsiya investitsiyalarini — xorijiy ta'lim-ilm texnologiyalarini jalb etish borasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2018-yilda yurtimizda Rossiyaning 2, Janubiy Koreyaning 2, Latviyaning 1 oliy ta'lim muassasasi filiallari tashkil etildi. Joriy yilda Hindistonning 2, Rossiyaning 2 va AQShning 1 oliy ta'lim muassasasi filiali talabalarni qabul qiladi. Ulardagi ta'lim jarayoniga 832 nafar xorijiy mutaxassis jalb etilgan.

Prezidentimizga muhandis-texnik kadrlar tayyorlash, ta'lim mazmunini kompetensiyalar (amaliy ko'nikmalar) asosida tubdan o'zgartirish, pedagogik ta'limning yangi modelini joriy etish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini "Universitet — 3.0" konsepsiyasi asosida tashkil etish, AKT va ta'lim texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash loyihalari bo'yicha ma'lumot berildi.

Bizga son emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratsa, o'sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish eng muhim vazifamizdir, dedi davlatimiz rahbari.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-pedagogik faoliyati va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid rejalar taqdimoti ham o'tkazildi. Besh yillik kompleks dastur ishlab chiqib, universitet faoliyatini rivojlantirish va uning xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashini ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi. Universitet huzuridagi litseyni tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashtirish, yetuk mutaxassislarga ehtiyoj ortib borayotganini inobatga olib, yangi fakultetlar tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda ilmiy-tadqiqot ishlarini tijoratlashtirish, kadrlar tayyorlash va ularni moddiy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari haqida so'z bordi.

Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish, 2030-yilga qadar Global innovatsiya indeksida ilg'or 50 mamlakat qatoridan joy egallash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Buning uchun, eng avvalo, ilm-fan sohasining me'yoriy-huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida "Fan to'g'risida" qonun loyihasi ishlab chiqildi. Qolaversa, o'tgan qisqa davr mobaynida ilmiy-tadqiqot ishlarini tijoratlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi.

Natijada innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qiymati 151 milliard so'mlik 55 loyihani amalga oshirish uchun qulay zamin yaratildi. Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo instituti tomonidan zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida ishlab chiqilgan oddiy superfosfat hamda mahalliy xomashyodan faollashtirilgan ko'mir olish texnologiyasi shular jumlasidandir. O'simlik moddalari kimyosi institutining "Ferulen" va "Flanorin" preparatlari, Bioorganik kimyo institutida "Rutan" dori vositasi substansiyasi, Yadro fizikasi instituti olimlari tomonidan yaratilgan suvni kimyoviy tozalash uskunasi ham bunga yaqqol misoldir.

Bu ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida 450 ishlanma va 90 ta tarmoq muammolari yechimlarini qamrab olgan "Buyurtmachi-tadqiqotchi-investor" maxsus portali ishga tushirilib, tijorat banklari bilan 19 yangi startap korxona tashkil etilgan.

Bularning barchasi import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishga sharoit yaratmoqda. Takror va takror ta'kidlash joiz: yangi fikr va yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi. Shuning uchun, birinchidan, import o'rnini bosadigan va ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni ko'paytirish kerak. Bu — masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni esa ushbu ishlanmalar mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarni qiziqtirishi va xaridorgir bo'lishi zarur, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimizning kelasi yildan ilmiy muassasalarni to'g'ridan to'g'ri davlat budjetidan moliyalashtirishga o'tkazish taklifi olimlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

Uchrashuvda arxeologiya sohasini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston arxeologlari tomonidan so'g'diy hukmdorlar qarorgohi xarobalari bo'lgan "Kofir-qal'a" yodgorligida yog'och panno — so'g'd san'atining noyob namunasi, Farg'ona vodiysidagi Axsikentda X asrda pishiq g'ishtdan tunnel shaklida qurilgan yer osti suv ta'minoti tizimi topilgani yurtimiz tarixi naqadar buyuk ekanidan dalolat berishi e'tirof etildi. Mutasaddilarga arxeologiyani rivojlantirish bo'yicha alohida davlat dasturini qabul qilish yuzasidan topshiriq berildi.

Termit hasharoti asosan sellyuloza, ya'ni yog'ochni kemirib, aholi turar joylari, madaniy-tarixiy obidalar, strategik ahamiyatga ega obyektlar, bino va inshootlarga jiddiy zarar yetkazadi. Zoologiya institutiga termitlarga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarni yanada takomillashtirish to'g'risida ko'rsatmalar berildi.

**(Davomi 3-betda)**

# INNOVATSION G'OYALARNI ILM-FAN VA SANOATGA KENG TATBIQ ETISH – ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINING BOSH MEZONI

**(Davomi. Boshi 2-betda.)**

Izlanuvchan olimlarni rag'batlantirish maqsadida ilmiy ishlanma yaratgan tadqiqotchiga doktorlik va uni amaliyotga tatbiq etgan izlanuvchiga tayanch doktorlik ilmiy darajasini beradigan binar (ikkitalik) himoya tizimini joriy qilish, budjet mablag'lari hisobidan stajor-tadqiqotchilar institutini hamda yurtimiz biologik xilma-xilligini o'rganadigan dala-tajriba stansiyalari tashkil etish tavsiya qilindi.

Keyingi yillarda ilm-fan va ta'lim sohasi xodimlari izchil rag'batlantirib kelinmoqda. Ilmiy xodimlarning maoshi o'tgan yili 1-sentabrdan o'rtacha 25, joriy yil 1-yanvardan 20 foiz oshirilgan edi, 1-iyuldan esa yana 25 foiz ko'tariladigan bo'ldi.

Prezidentimiz ushbu amaliy choralarning mantiqiy davomi sifatida joriy yil 1-sentabrdan barcha davlat tashkilotlarida ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan, ta'lim va ilm-fan sohasida mehnat qilayotgan fan nomzodlarining maoshiga 30 foiz, fan doktorlari uchun esa 60 foiz ustama haqi belgilashni taklif qildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida tashkil etiladigan Yoshlar akademiyasi ham ilm-fan vakillarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu akademiyaga innovatsion fikrlaydigan iqtidorli talabalar va 40 yoshgacha bo'lgan olimlar, tashabbuskor yoshlar a'zo bo'ladi. Akademiyada sun'iy intellekt, qayta tiklanadigan energiya manbalari, robot texnikasi va mexatronika, farmatsevtika, biotexnologiya, dasturlash, sanoat dizayni, 3D modellashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib boriladi.

Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash jarayonini yanada jadallashtirish bo'yicha qarorlari va "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar ijrosi doirasida oliy ta'lim muassasalarining yirik ishlab chiqarish korxonalari, davlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari bilan hamkorligi yo'lga qo'yildi. Natijada tashkilot va korxonalarning 4 mingdan ortiq malakali amaliyotchi-mutaxassislari oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga jalb etilgan.

Shuningdek, keyingi 2 yil davomidagi xalqaro hamkorlik natijasida mamlakatimizda yangi oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi, 30 dan ortiq o'quv yurtida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlanmoqda.

Oliy ta'lim tizimini zamonaviy usullar yordamida samarali boshqarish, sohada moddiy-texnik bazani kuchaytirish, o'quv-metodik ishlarni takomillashtirish bo'yicha jiddiy choralar ko'rishimiz zarur. Iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategiyasini belgilash, davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini qayta ishlab chiqish, talabalarning malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish lozim, dedi Prezident.

Uchrashuvda pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni tabaqalashtirgan holda rag'batlantirish tizimini joriy etish haqida ham so'z yuritildi. Oliy ta'lim vazirligi magistratura talabalarini Fanlar akademiyasining mos yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot institutlarida stajirovka o'tashini yo'lga qo'yish, tabiiy fanlar va muhandislik yo'nalishlaridagi magistratura talabalarini budjet hisobidan davlat buyurtmasi asosida tayyorlashni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadalari tizimini takomillashtirish, g'oliblarni munosib taqdirlash va rag'batlantirish, xususan, mamlakat miqyosidagi g'oliblarni tegishli mutaxassisliklar bo'yicha magistraturaga, xalqaro olimpiada g'oliblarini esa keyinchalik doktoranturaga ham sinovsiz qabul qilish choralarini ko'rish belgilandi. Moliyaviy barqaror oliy o'quv yurtlarini o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish lozimligi qayd etildi.

Shavkat Mirziyoyev olim va pedagoglarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Uchrashuvda akademiklar, oliy o'quv yurtlari rektorlari va talaba yoshlar so'zga chiqib, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

O'zbekiston Milliy universiteti matematika fakulteti 4-bosqich talabasi Sardor Bozorboyev yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatdan keng foydalanish zarurligini ta'kidlab, talaba va o'quvchilar fan olimpiadalari o'tkazish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilayotgan e'tibordan mamnun ekanligini bildirdi.

Sardor matematika bo'yicha o'tkazilgan xalqaro olimpiadalarda 4 oltin, bittadan kumush va bronza medalni qo'lga kiritgan.

— Ta'lim tizimiga e'tibor samarasini yoshlarimiz turli tanlov va xalqaro olimpiadalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlar misolida ham ko'rish mumkin, — dedi S.Bozorboev. — Biz, yoshlar yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalanib, yurtimiz dovrug'ini yanada yuksaltiramiz, ulug' allomalarning munosib vorislari ekanimizni isbotlaymiz.

Prezidentimiz Sardor kabi izlanuvchan, zukko, bilimdon yoshlar yurtimiz kelajagi ekanini ta'kidlab, unga avtomashina sovg'a qildi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan Toshkent shahri hududidan oqib o'tuvchi Chirchiq daryosi, kanal va kollektorlar sohillarida noqonuniy qurilmalarni bartaraf etish va hududlarni obodonlashtirish yuzasidan "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

Prezidentimiz 2018-yil 9-fevral kuni Olmazor tumanida bo'lib, kanallar bo'yini obodonlashtirish, aholining dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

Bugun bu yerda ko'rkam madaniyat va ma'rifat maskani bunyod bo'ldi. "Damashi" kanalining 2,5 kilometr qismi qirg'oqlari betonlashtirilib, "Soy bo'yi" sayilgohi barpo etildi.

Kanal qirg'og'i 7 lotga bo'linib, ularda tadbirkorlik subyektlari tomonidan ham restoranlar, dam olish maskanlari, kovorking markazi, fitness klubi va boshqa bir qator obyektlar hamda jahonga mashhur Eyfel va Piza minoralari, Minorai kalon, Luvr piramidasi va boshqa shunga o'xshash obyektlar maketlari barpo etildi.

Davlatimiz rahbari kovorking markazi va undagi tikuvchilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bir paytlar bu yerlar qanday tashlandiq joy edi. Hammamiz shunday yashashga o'rganib qolgan edik. Bir yil ichida qilingan ishlar samarasini ko'rib turibmiz. Obodlik bor joyda qut-baraka bo'ladi. Bu yer nafaqat hordiq chiqaradigan joy, balki ma'naviyat va ma'rifat maskaniga ham aylanadi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Obodonlashtirish ishlari bo'yicha buyurtmachi — Toshkent shahar hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi. Bosh loyihachi — "Prime tower group" MChJ. Bosh pudratchi sifatida esa "Inter building" MChJ ish olib bordi.

Abdulla Qodiriy va Cho'lpon nomidagi kutubxonalar, Nuroniylar maskani, "Yoshlar mehnat guzari" ham avvalgi tashrifning amaliy natijalaridir.

Kutubxona boy kitob fondi va axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan elektron tarzda bog'langan.

Nuroniylar maskanida faxriylar o'z vaqtini mazmunli o'tkazishi, salomatligini mustahkamlashi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Davlatimiz rahbari kutubxonalar va Nuroniylar maskanini ko'zdan kechirdi. Mahalliy aholi vakillari, oqsoqollar bilan suhbatlashdi.

Shayxontohur tumanidan oqib o'tuvchi "Katta Kalkauz" kanalidan suv oladigan "Damashi" Olmazor tumanining Nurafshon ko'chasidan boshlanadi. Uning umumiy uzunligi 7,36 kilometrni tashkil etadi.

Prezidentimizga "Soy bo'yi" sayilgohi va hudud atrofidagi Oltinsoy, Qichqiriq va Taraqqiyot mahallalarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari bu tizimni Toshkent shahrining barcha tumanlarida joriy qilish, jinoyatchilikning oldini olishda ilm va tahlil asosida ishlash zarurligini ta'kidladi.

Kanal va uning atrofidagi hududning ozodaligi hamda sanitariya holati Toshkent shahar va Olmazor tumani hokimliklarining maxsus ishchi guruhi tomonidan muntazam nazorat qilib boriladi. Xususan, "Toza kanal" kampaniyasi tadbirlari boshlanganidan shu kunga qadar qirg'oqbo'yi hududida 136 noqonuniy qurilmalar aniqlanib, ularning 133 tasi bartaraf etildi. Bu boradagi ishlar davom etmoqda.

Davlatimiz rahbarining Olmazor tumaniga avvalgi tashrifi shunday xayrli natijalarga olib keldi. Ishonch bilan aytish mumkinki, galdagi tashrif chog'ida belgilangan vazifalar, berilgan topshiriqlar yanada yangi marralarni egallashga yo'l ochadi.

**Matnazar ELMURODOV,
Alouddin G'AFFOROV,
Ziyodulla JONIBEKOV,
O'zA muxbirlari**

# GFR PREZIDENTINING O'ZBEKISTONGA RASMIY TASHRIFIGA DOIR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer joriy yil 27—29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Prezidentlar davlatimiz rahbarining joriy yil 20—22-yanvar kunlari Germaniyaga tashrifi davomida bo'lib o'tgan oliy darajadagi muloqotni davom ettirib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollarini, shuningdek, O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi formati doirasidagi aloqalarni muhokama qiladilar.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashish rejalashtirilgan.

Tashrif doirasida Frank-Valter Shtaynmayerning O'zbekiston va GFR yetakchi kompaniya va banklari, jamoatchilik vakillari bilan uchrashishi, qator sanoat va boshqa obyektlar bilan tanishishi ko'zda tutilgan.

Federal Prezident Xorazm viloyatiga tashrif buyurib, Urganch davlat universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari bilan uchrashadi hamda Xiva shahrining tarixiy va me'moriy obidalari bilan tanishadi.

Tashrif yakunida iqtisodiyot, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ikki tomonlama munosabatlarni yanada kengaytirishga qaratilgan hujjatlar imzolanishi kutilmoqda.

**O'zA**

# Milliy metodika taraqqiyoti yo'lida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Unda respublikamizning ko'zga ko'ringan metodist-professorlari, umumta'lim maktablarida faoliyat yuritib kelayotgan amaliyotchi-o'qituvchilar hamda talabalar ishtirok etdi.

Konferensiyani filologiya fanlari doktori Abdulhay Sobirov ochib, anjumanning milliy ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi ilk odimlardan biri ekanligi haqida gapirib, bu borada xorijiy innovatsiyalardan foydalanish tajribasini yo'lga qo'yish zarurligini alohida ta'kidladi.

Filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyev milliy ta'lim tizimi faoliyatiga tanqidiy baho berdi. Olim O'zbekiston ta'lim tizimi turg'unlik bosqichini boshidan kechirayotgani, mavjud fan dasturlari eski davrning qiyofasini aks ettirish uchun xizmat qilayotganligi, metodika sohasida qilingan va qilinayotgan ba'zi ishlar hech qanday amaliy ahamiyatga ega emasligini aytib o'tdi. Shundan so'ng so'zga chiqqan ma'ruzachilar ham ustozning fikrlarini davom ettirib, ta'lim tizimida mavjud eng katta kamchiliklardan biri o'qituvchi va o'quvchilar orasida hali-hanuz hokim-tobelik munosabatining hukmron ekanligi hamda unga chek qo'yib, o'quvchilarni ta'lim tizimida alohida subyekt sifatida shakllantirish lozimligini aytib o'tdilar.

Anjuman davomida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi mutaxassislari pedagogika, metodika sohalarida amaliy faoliyat olib borayotgan maktab va litsey o'qituvchilari hamda ona (o'zbek) tili, adabiyot darsliklarining mualliflari ham ta'lim sifatini ko'tarish, erkin va zamonaviy fikrlay oladigan o'quvchilar qatlamini shakllantirish borasidagi nazariy va amaliy takliflari bilan o'rtoqlashdi.

Konferensiya yakunida mutaxassislar respublika miqyosida hamkorlik pedagogikasini yo'lga qo'yishga kelishib oldi. Viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalarida ham "Til va adabiyot o'qitish metodikasi" kafedralarini tashkil etish, fan dasturlari va darsliklarini yaratishni muvofiqlashtirib turuvchi tashkilot faoliyatini yo'lga qo'yish kabi takliflar bildirildi.

**Humoyun QUVONDIQOV**

# Ijod namunalari chet tilida o'qildi

Yunusobod tumanidagi 9-IDUMda "Our school is old but nice" mavzusida ochiq dars o'tkazildi.

May — xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz tillari) fan oyligi doirasida tashkil etilgan mashg'ulotda 5-sinf o'quvchilari ingliz tili darslarida olgan bilimlari va nutqiy mahoratini namoyish etdi. Bolajonlarning xorijiy tillar bo'yicha o'rganganlari qiziqarli savol-javoblar asosida sinovdan o'tkazildi.

Ta'lim muassasamizda chet tillarni o'qitishda yozish, o'qish, so'zlash, tinglab-tushunish malakalarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, chet tillarni o'rganishga ishtiyoqi baland o'quvchilarga "Ingliz tili" to'garagi orqali qo'shimcha bilim beriladi.

Ochiq darsda o'quvchilar ingliz tilida ijro etgan she'r va qo'shiqlar, tez aytish, maqollar va sahna ko'rinishlari barchaga manzur bo'ldi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirishga hissa qo'shadi.

**Nigora RO'ZIYEVA,**
shu maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

# Oppog'oyga havas qilgan o'quvchilar

"Qirolicha Oppog'oy yashnab borgani sari unga hasad va rashk qiladigan bo'ldi. Oppog'oyning chiroyli liboslarini xizmatkorlarning dag'al kiyimlariga almashtirib qo'yishdi. Biroq u erta tongdan to kech oqshomgacha mehnat qilar, saroyda pol yuvar, idish-tovoqlarni tozalardi".

Bolajonlar sevib mutolaa qiladigan ushbu ertak qahramonining go'zalligi, samimiyligi, qushlar bilan do'stlashishi o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Mirobod tumanidagi 328-maktabda o'tkazilgan tadbirda qiziqarli ertakning inglizcha sahnalashtirilishi o'g'il-qizlarning diqqatini tortib, chet tilida qiynalmay so'zlashishiga turtki bo'ldi. Maktabning 3-, 5-, 6-, 8-, 9-sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etilgan badiiy kechada ingliz tilida kuylangan she'r va qo'shiqlar tomoshabinlarda yaxshi taassurot qoldirdi.

Maktab direktori F.Gaziturova, ingliz tili o'qituvchilari U.Sobirova, M.To'xtaboyeva, B.Narzullayeva, G.Mirzayevaning sa'y-harakatlari bilan o'quvchilar ingliz tilini puxta o'rganishga astoydil intilishmoqda.

**Nigora SOBIROVA,**
shu maktab o'qituvchisi

# Besh tashabbus — ibratli dastur

Muborak tumanidagi 3-maktabda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus ijrosini ta'minlash bo'yicha shtab tuzilib, salmoqli ishlar amalga oshirilayotir.

Jumladan, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida barcha sinflar kesimida musiqa va san'at, sport, kitobxonlik, kompyuter savodxonligi va kasbga yo'naltirish bo'yicha to'garaklar tashkil etilib, doimiy faoliyati yo'lga qo'yildi. Masalan, maktabimizdagi 547 o'quvchining 300 nafari voleybol, futbol, kurash, shaxmat, shashka to'garaklariga jalb etilgan. Qolgan o'g'il-qizlar san'at va kasbga yo'naltirilgan to'garaklarda bilimlarini mustahkamlamoqda.

Mazkur to'garaklar yozgi ta'til davrida ham muntazam faoliyat olib borishi rejalashtirilgan. Yozgi oromgohlarga qamrab olinmagan o'g'il-qizlar muassasamizda tashkil etilgan oromgohda hordiq chiqarib, to'garaklarda o'z ustida ishlashi, bilimlarini oshirishi uchun tayyorgarlik olib borilmoqda.

Shuningdek, o'quvchilar bilim sifatini yaxshilash, ularni yot g'oyalardan asrash borasida "Oila — mahalla — ta'lim muassasasi hamkorligi" yanada yaxshilandi, ota-onalar, mahallalar mas'uliyatini oshirish va bu hamkorlik samaradorligini ta'minlash bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

**G'ofurali YORQULOV,**
shu maktab direktori

# Bolalar ta'tilda ham kitobdan uzoqlashmaydi

Keyingi yillarda aksar oilalarda mutolaa madaniyatiga kam e'tibor qaratilishi tufayli o'quvchilarning kitobga mehri susaygani kuzatildi.

Mana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida o'zim rahbarlik qilayotgan sinfda darsdan tashqari paytlari tez-tez kitobxonlik kechalari o'tkazib turaman. Bundan bir oy avval o'quvchilarimga taniqli ingliz adibi Daniel Defoning "Dengiz sayyohi Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" kitobini o'qib kelishni vazifa qilib berdim. Bolalar yaqinda kitobni o'qib bo'lganini ma'lum qilgach, "Kitob — bebaho boylik" mavzusida tadbir o'tkazdik. Tadbirda kitob haqida she'rlar aytildi, qo'shiqlar ijro etildi. Robinzon Kruzoning oroldagi sarguzashtlari haqida sahna ko'rinishi namoyish qilindi.

Hademay ta'til boshlanadi. Bolalarning yozda ham mutolaaga oshnoligini ta'minlash uchun qiziqarli, ular yoshiga mos asarlarni o'qishni vazifa qilib bermoqchiman. Yangi o'quv yili boshlangach, yana kitobxonlik tadbirlarini davom ettiraman.

**Zulfiya TOJIXOJAYEVA,**
Uchtepa tumanidagi 287-maktab o'qituvchisi

# O'qituvchi nimani o'ylaydi?



☑ O'quvchilarga aniq bir sohani mukammal o'rgatadigan maxsus nashrlar kerak. Masalan, matematikadan hisoblashga, fizikadan texnika va kosmosga, informatikadan dasturlash yoki kompyuterda ishlashga o'rgatadigan, musiqadan o'zbek musiqa san'ati haqida to'liq ma'lumot beradigan nashrlarga ehtiyoj bor. Ular maktab o'quvchilarining yoshiga mos tarzda chop etilsa, nur ustiga nur bo'lur edi.

**Dildora O'ROLOVA**

☑ Bugun so'nggi qo'ng'iroq. Men ham o'quvchilarimga oq yo'l tilab, ularni mustaqil hayotga kuzatuvchilar qatoridaman. Ko'z o'ngimda oxirgi qo'ng'iroqda menga dalda bo'lgan sobiq sinf rahbarim va ustozlarimning nurli siymolari gavdalandi. Ko'zlarimda yosh qalqidi. O'sha mahal qalbimdagi tug'yonni bir juft so'z bosganday bo'ldi: "Men muallimman!".

**Mavludaxon MUQIMOVA**

☑ Lotin yozuvini isloh qilish haqida bosh qotirgandan ko'ra, ona tilimizni muhtahkamlash, "Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartirish kiritish haqida o'ylashimiz kerak emasmi?!

**Mahfuza RASHIDOVA**

☑ Nega doim o'qituvchi haqida gap ketganda unga "oddiy" sifati qo'shib aytiladi?! Nega "oddiy shifokor", "oddiy san'atkor", "oddiy quruvchi" yoki "oddiy dehqon" deyilmaydi. Aslida ana shu oddiy bo'lmagan kasblarning boshida oddiy o'qituvchining mehnati yotadi-ku.

**O'QITUVCHI**

☑ 1995-yili maktabga borganimizda kirill alifbosida savodimiz chiqdi. Ikki yarim yildan so'ng lotin yozuviga o'tdik. O'sha paytdagi qiyinchiliklarni o'qituvchilar va ota-onalar bizdan ko'ra yaxshiroq biladi. Yana shu holatga tushish dahshatning o'zi.

**PEDAGOG**

☑ Ayrim ota-onalar farzandi o'qituvchisidan qattiqroq dakki eshitsa, maktabga yugurib kelishadi. Ammo o'sha ona yoki ota har chorakda o'tkaziladigan ota-onalar majlisida farzandining o'zlashtirishi, tarbiyasi haqida so'rashga kelmaydi.

**Shahnoza AVAZOVA**

☑ Maktabga ish so'rab kelgan kadrning birinchi galda diplomiga qaraladi. Uning bilimi, pedagogik mahoratiga e'tibor berilmaydi. Maktablarda faqat oliy ma'lumotlilar dars berishi kerak, deyilgan joyi yo'q-ku.

**G'ayrat QORABEKOV**

# Ekobog'lardagi ma'naviy tadbirlar

**U**chtepa tumaniga "Ma'naviyat karvoni" keldi. Karvonning safari tumandagi 74- va 238-maktab o'quvchilari uchun ham bir olam quvonch olib keldi. Boisi, bu maktablarga 16 dona kompyuter jamlanmasi sovg'a qilindi.

— Davlatimiz rahbarining 238-maktabga tashrifi davomida ta'lim muassasasi sharoitlari tanqid ostiga olingandi, — deydi Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Gulchehra Usmonova. — Ayni paytda maktab qarshisida qad rostlagan "Kitob olami" majmuasining faoliyati ota-onalarni ham mamnun etmoqda.

Ikkinchi tashabbus — yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha kuni kecha "Sog'lom turmush tarafdorimiz" marafoniga start berildi. 2000 ga yaqin o'g'il-qiz o'zining jismoniy salohiyatini sinovdan o'tkazdi. Bu kabi tadbirlar o'tkazilayotgan tumandagi ekobog'da haqiqiy bayramona muhitni ko'rish mumkin. O'quvchilar va ota-onalar kitob ko'rgazmasida yangi adabiyotlar bilan yaqindan tanishib, shoir va yozuvchilar bilan ijodiy uchrashuvlarda ishtirok etishdi.

**Sergeli** tumanidagi "Green park" istirohat bog'ida "Ijodkor va yaratuvchan bolalar" mavzusida ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.

Tadbirda Keimyung universiteti mutaxassisi Seung Jin va tuman hokimi Nozim Husanov qatnashdi.

Unda tuman maktablaridagi to'garaklar faoliyati bo'yicha besh tashabbus ijrosiga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil etildi.

— Tumanimizdagi o'g'il-qizlarning kasb-hunarli bo'lishi uchun yashil bog' qo'ynida shunday tadbirlarni muntazam o'tkazib borishni rejalashtirganmiz, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Leonid Magay. — Koreyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda bolalar o'rtasida intellektual va sport musobaqalari, turli trening-mashg'ulotlar uyushtiryapmiz.

**Shoira BOYMURODOVA,**
**«Ma'rifat» muxbiri**

# Zulmatni yorituvchi chiroq

**Z**angiota tumanidagi 16-umumta'lim maktabida "Kitob zulmatni yoritar" mavzusida tadbir o'tkazildi. Maktabda "Sharq" nashriyot-matbaa ijodiy uyining kitoblar ko'rgazmasi tashkil etilib, ota-onalar, mahalla faollari va maktabning sobiq o'quvchilari taklif etildi.

Ular sara adabiyotlarni xarid qilib, farzandi ta'lim olayotgan muassasaga sovg'a qildi. Ushbu xayrli ishni maktab direktori Eliboy O'rolov boshlab berdi. Kitob marafonining maktab hududida tashkil etilgani ko'ngildagidek ish bo'ldi. Ilm maskanining kitob fondi qariyb ikki barobar oshdi.

— 468 nafar o'g'il-qiz ta'lim olayotgan muassasamiz kutubxonasida 500 dan ziyod adabiyot mavjud edi, — deydi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Gulchehra Mahmudova. — Nazarimda, bu kitoblar o'quvchilarimiz uchun kamroq edi, endilikda bolalar yangi asarlarni mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Hatto ota-onalar ham asarlarni o'qish istagini bildiryapti.

**Mahbuba KARIMOVA**

# Xaritani bilasizmi?

**S**amarqand tumanidagi 16-umumta'lim maktabida "Xaritani bilasizmi?" mavzusida musobaqa o'tkazildi. Ushbu tadbirda maktabning yuqori sinf o'quvchilari sinflar kesimida to'rtta shart bo'yicha o'zaro bellashdi.

"Bilimdonlar" hamda "Geograflar" guruhi birinchi shartda o'quv yili davomida olgan bilimlarini sinab, xatjild ichida yashirilgan savollarga javob izlashdi. Keyin bolalar raqib guruh tanloviga binoan dunyo mamlakatlarining xaritada joylashgan o'rnini ko'rsatishdi.

Tadbirda maktabning bitiruvchi sinf o'quvchilari o'zlari tanlagan kasb bo'yicha badiiy chiqish qildi. Ular sahna asarlari orqali geografik bilimlar har jabhada zarur bo'lishini ta'kidlashdi.

**Gulbahor YOROVA,**
**shu maktab o'qituvchisi**

# Kompyuterlashtirilgan baholash tizimi

Xalq ta'limi vazirligi "Umumta'lim maktab o'quvchilarining ingliz tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha barqaror kompyuterlashtirilgan baholash tizimini joriy etish loyihasi"ni amalga oshirmoqda.



Vazirlik axborot xizmati xabariga ko'ra, mazkur loyiha O'zbekistondagi AQSh elchixonasi hamkorligida hamda O'zbekiston Respublikasi hukumati, Jahon banki va USAID tashkiloti moliyaviy ko'magida amalga oshirilmoqda.

Loyiha ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'quvchilarning ingliz tilini bilish darajasini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu xayrli loyihaning amalga oshirilishi ta'lim mazmuni va o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, uni avtomatlashtirilgan axborot tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, xalqaro dasturlar va ilmiy tadqiqotlar (PISA) asosida umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning bilim darajasi monitoringini o'tkazish yo'li bilan sifat va samaradorlikni ta'minlashga imkon yaratadi.

Loyiha konsepsiyasiga ko'ra, tizimda fundamental o'zgarishlarni amalga oshirish, yangi baholash mezonlarini joriy etish, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, hujjat ishini keskin kamaytirish, bir so'z bilan aytganda, ta'lim mazmuni va sifatini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

# "Khan Akademy" elektron platformasi

## Xalq ta'limi tizimida keng qo'llanadi

Xalq ta'limi tizimida besh tashabbusning uchinchisi — aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari hamda internetdan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida ilg'or xalqaro va chet el ta'lim dasturlari asosida faoliyat yurituvchi milliy onlayn resurs amaliyotga keng joriy qilinadigan bo'ldi.

Xalq ta'limi vazirining 178-sonli buyrug'iga ko'ra, "Bilim onlayn" nodavlat notijorat tashkilotining **"Yuqori sifatli ta'limni har joyda va hammaga taqdim etish"** shiori ostida faoliyat ko'rsatuvchi **"Khan Academy" elektron platformasini** Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda **o'zbek tiliga moslashtirish hamda kelgusida uni yanada ommalashtirish** ko'zda tutilmoqda.

Mazkur platformada **matematika, axborot texnologiyalari, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, sog'liqni saqlash va tibbiyot, moliya, iqtisodiyot hamda boshqa fanlar** bo'yicha 10 mingdan ortiq bepul ma'ruzalar kolleksiyasi to'plangan. Ayni paytda jahonning **190 mamlakatida** uning **36 tildagi** videodarslari va elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Aytish joizki, platformadagi mavjud ta'lim resurslari jahon standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, bu ta'lim oluvchilarning erkin hamda mustaqil bilim olishini ta'minlaydi. Eng muhimi, har qanday o'quvchi maktabda olgan bilimini platformadagi "tekin repetitor" — videodarslar ko'magida mustahkamlab borishi mumkin.

# Xorazm viloyati hokimi maktablarga ko'mak bermoqda

Joriy yilning 20-may kuni Xorazm viloyati hokimi tashabbusi bilan umumta'lim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba tariqasida test sinovlari natijalari va ushbu jarayonda aniqlangan muammolar hamda ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan selektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Viloyat hokimi F.Ermanov o'z ma'ruzasida 2-bosqichda o'tkazilgan test jarayonlari natijasiga e'tibor qaratib, oliy ta'lim muassasalariga kirishga tayyorgarlik ishlarini kuchaytirish, ota-onalarga tushuntirish ishlarini olib borish, barcha bitiruvchilar o'z bilimini sinab ko'rishlari uchun OTMga hujjat topshirishi va yoshlarning mamlakatimiz hamda jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shadigan avlod bo'lib tarbiyalanishida hech kim befarq bo'lmasligi zarurligini alohida ta'kidladi.

Viloyat hokimining yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari boshchiligida ishchi guruh tuzilib, oliy ta'lim muassasalari va ularning yo'nalishlari, O'zbekistondan tashqarida joylashgan oliy ta'lim muassasalari diplomlarini nostrifikatsiya qilish bo'yicha, qolaversa, kirish imtihonlaridagi o'zgarishlar va bir vaqtning o'zida uchtagacha yo'nalishga imtihon topshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar har bir bitiruvchi va ularning ota-onalariga yetkazilishi haqida ko'rsatma berildi.

151 ta ta'lim muassasasiga metodik yordam zarurligi ta'kidlandi.

**Ixtiyor MAHMATQULOV,**
**Xalq ta'limi vazirligi mutaxassisi**



# Savol bering, javob beramiz!

## Malaka sertifikati qachon keladi?

**? Savol:**

— Shu yil mart oyining oxirida malaka toifasi uchun o'tkazilgan attestatsiya imtihonida qatnashib, 95 ball bilan oliy toifani himoya qildim. Nizomga ko'ra, toifa sertifikati 1 oy ichida yetkazilishi belgilangan. Biroq oradan bir yarim oydan ko'p vaqt o'tsa-da, haligacha sertifikat kelmadi. 1-toifamning muddati tugadi, hozir menga mutaxassis sifatida oylik to'lanyapti. Sertifikat qachon jo'natilishini bilish uchun Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi saytidagi telefon raqamlariga qo'ng'iroq qildim. 2 ta raqamning bittasi umuman boshqa odamga tegishli ekan. Ikkinchisiga, har qancha urinmay, hech kim javob bermaydi.

Inspeksiyaning elektron manziliga ham yozdim. Afsuski, javob yo'q. Shundan keyin kuzatuvlarim asosida bir xulosaga keldim. Bu tashkilot juda ham yopiq ishlarkan. Axborot olish juda qiyin. Hozir 1-toifam muddati tugagani sababli menga mutaxassis sifatida oylik to'lanyapti. Bu ketishda mehnat ta'tili uchun haqni ham mutaxassis sifatida olaman. Hisoblasam, har oyda 1 million so'mdan yutqazyapman (to'g'ri, keyinchalik to'lab berilarkan, lekin mehnat ta'tili uchun to'lanadigan mablag' kam chiqadi).

**Jasur NURALIYEV,**
**Koson tumanidagi 33-maktab o'qituvchisi**

**Javob: !**

— Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 392-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom"ning 59-bandida attestatsiya ikki bosqichda o'tishi belgilangan. Birinchi bosqichda attestatsiyadan o'tuvchining o'quv fani bo'yicha malaka sinovi natijalari, dars o'tish mahorati va mehnat samaradorligi ekspert guruhi tomonidan o'rganiladi hamda tegishli tavsiyalar tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqichda attestatsiya komissiyalari ekspert guruhi tomonidan o'rganilgan birinchi bosqich natijalarini tahlil qiladi. Attestatsiya jarayonida to'plangan hujjatlar jamlanmasini o'rganadi. Pedagog kadrni malaka toifasida qoldirish yoki unga boshqa toifa berish to'g'risidagi qaror qabul qilingandan so'ng xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tomonidan oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga buyurtmanoma berish vazifalari belgilab qo'yilgan. Shu munosabat bilan hozirgi kunda inspeksiyaga sertifikatlar olish uchun xalq ta'limi, boshqarmalaridan buyurtmanoma taqdim etilmagan. Siz murojaatingiz bo'yicha hududiy xalq ta'limi boshqarmasi attestatsiya komissiyasiga murojaat etishingiz kerakligini ma'lum qilamiz.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida (71) 231-07-53 telefon raqami; (1023, 1032) ichki raqamlari fuqarolar murojaatlari bo'yicha xizmat qilmoqda.

**Murojaatga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bosh mutaxassisi O.USMONOV javob berdi.**

## "Zamonaviy maktab" qanday quriladi?

**? Savol:**

— Olis hududlarda, hatto viloyat markazida joylashgan maktablar hojatxonasining hammasi ham qoniqarli ahvolda emas. Men olis joylardagi o'quv maskanlarida bu boradagi sharoit achinarli darajada ekaniga bir necha bor guvoh bo'lganman. "Zamonaviy maktab" dasturi asosida quriladigan muassasalarda bunga qay darajada ahamiyat beriladi?

**N.MO'MINBOYEVA**

*Toshkent shahri*

**Javob: !**

— "Zamonaviy maktab" dasturi asosida yangi tipda quriladigan muassasalar loyihasi yuzasidan Qurilish vazirligi bilan hamkorlikda chet el tajribasi o'rganilib, xorijlik mutaxassislar fikri o'rganildi. Yangi loyiha asosida quriladigan maktabda o'quvchilarga qulaylik yaratish uchun oshxona, hojatxonani o'quv binosining ichida joylashtirish, uning suv, kanalizatsiya, ventilyatsiya tizimini takomillashtirish, qo'shimcha qo'l yuvish uskunalarini o'rnatish orqali zamon talablariga mos, ekologik va sanitariya-gigiyena mezonlariga to'la javob berishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Savolga Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Ibrohim JO'RAYEV javob berdi.**



## Maktabda hijobli yurish mumkinmi?

**? Savol:**

— Ta'lim dargohida o'quvchilarning hijob o'rab kelishiga ruxsat berilganmi?

**R.MATMUSAYEV**

**Javob: !**

— Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy maktab formasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 666-sonli qarori bilan "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlangan. Uning 7-bandiga ko'ra, o'quvchilar ta'lim muassasasi binosi ichida bosh kiyimsiz yurishlari lozim, ta'lim muassasasida o'tkaziladigan turli tadbirlar jarayoni bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasida aholi turli millat va diniy konfessiyalar vakillaridan iboratligi hamda majburiy umumiy o'rta ta'lim dunyoviy xarakterga egaligi munosabati bilan o'quvchilarning maktab formasiga turli din va konfessiyalar hamda turli submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi elementlarni (hijob, kipa, kashaya, xoch va boshqalar) qo'shishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Savolga XTV axborot xizmati ko'magida javob olindi.**

## Maktabda nosozlik kuzatilsa...

**? Savol:**

— Umumta'lim maktabi qurilib, foydalanishga topshirilgach, elektr tizimida nosozliklar kuzatilsa, turli jihozlarni ta'mirlash-tiklash ishlariga ehtiyoj sezilsa, direktor buning uchun mutaxassis, xomashyo va xizmat haqi uchun mablag'ni qayerdan olishi mumkin?

**D.RO'ZIQULOV**

*Toshkent shahri*

**Javob: !**

— 2018-yili barcha tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limlarida Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati tashkil etilib, "Damas" rusumli avtomashina va kerakli asbob-anjomlar bilan ta'minlangan. Ushbu xizmat tarkibida texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (xususan, dispetcher, elektromontyor, chilangar-santexnik, payvandchi va ta'minotchi shtatlari) faoliyat yuritmoqda (shu hisobdan mazkur ishlar uchun xizmat haqi to'lanmaydi). Ta'lim muassasalari yuzaga kelgan favqulodda texnik nosozlik bo'yicha ushbu xizmatga murojaat etishi mumkin. Shuningdek, markazdan olis hududdagi maktablarda duradgor, santexnik, chilangar singari ishchi shtatlari saqlab qolingan. Tuman(shahar) xalq ta'limi bo'limlari yillik xarajatlar smetasini tuzishda 4-guruh xarajatlariga bunday xizmatlarda talab qilinadigan xomashyo va materiallar uchun albatta mablag' ajratiladi.

**Savolga XTV qurilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Eldor TOJIBOYEV javob berdi.**

# Pedagog kadrlar attestatsiyasi

(Davomi. Boshi 1-betda)

Attestatsiyadan o‘tish muddati kelgan oliy va birinchi malaka toifali hamda ushbu malaka toifalariga talabgor 25 mingdan ziyod pedagog to‘g‘risida buyurtmanomalar shakllantirildi. Hududlardagi oliy ta’lim muassasalari bilan kelishgan holda attestatsiyaning malaka (test) sinovlarini o‘tkazish jadvali ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Oliy, birinchi malaka toifali hamda ushbu malaka toifalariga talabgor pedagoglar uchun o‘quv fani bo‘yicha malaka (test) sinovlari nazorat materiallarini ekspertizadan o‘tkazish, mazmunini malaka toifalariga mos ravishda tabaqalashtirish maqsadida **200 nafardan** ortiq amaliyotchi pedagog, o‘qituvchi-metodistlardan iborat ekspertlar guruhi shakllantirildi. Ular **4-fevraldan 2-martga** qadar savollar bazasini ekspertizadan o‘tkazdi. **29 ta** o‘quv fanidan o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillarida, shu jumladan, boshqa ta’lim tillari bo‘yicha boshlang‘ich sinf hamda ona tili va adabiyot o‘quv fanlaridan qozoq, tojik, turkman va qirg‘iz tillarida ekspertlar xulosasi asosida texnik talablarga mos keluvchi savollar bazasi shakllantirildi.

Attestatsiya jarayonida ishtirok etishi lozim bo‘lgan **23 118 nafar (1 203 nafar** (5,2 foiz) oliy, **4 095 nafar** (17,7 foiz) birinchi, **17 820 nafar** (77,1 foiz) ikkinchi malaka toifali) pedagog kadrlarning **601 (2,5 foizi)** nafari uzrli sabablarga ko‘ra qatnasholmadi.

Test savollari va javoblari maxfiyligini saqlagan holda ko‘p variantlilik asosida shakllantirildi. Pedagog kadrlar uchun kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish yuzasidan qisqa muddatli mashg‘ulotlar tashkil etildi. Onlayn rejimda test jarayoni sinovdan o‘tkazildi.

Onlayn test sinovlari joriy yilning 4—9-martida Toshkent shahrida, 25-martdan 1-aprelga qadar hududlarda o‘tkazildi.

Malaka (test) sinovlari natijalari tahliliga ko‘ra, respublika bo‘yicha ishtirokchilar natijasi quyidagi jadvalda aks etgan:

| № | Ko‘rsatkichlar | 2018-yilda | 2019-yilda | farqi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 75 foiz va undan yuqori | 17,2% | 25,3% | +8,1% |
| 2 | 65 foizdan 75 foizgacha | 17,5% | 18,3% | +0,8% |
| 3 | 60 foizdan 65 foizgacha | 10,2% | 9,2% | -1,0% |
| 4 | 55 foizdan 60 foizgacha | 10,2% | 8,8% | -1,4% |
| 5 | 55 foizdan past | 45,0% | 38,4% | -6,6% |

Ko‘rinib turibdiki, yuqori natija qayd etgan pedagoglar soni oshgan. 1 363 nafar (6,1 foiz; o‘tgan yilgi 4,7 foizga nisbatan 1,4 foiz ko‘p) pedagog **oliy malaka toifasiga** mos natija qayd etgan bo‘lsa, 9 128 nafar (40,5 foiz; o‘tgan yilgi 18,4 foizga nisbatan 22,2 foiz ko‘p) pedagoglar **birinchi malaka toifasiga** munosibligini isbotladi.




11 249 (50 foiz) nafari ijobiy natija, ya’ni amaldagi malaka toifasini oshirish yoki saqlab qolishga mos keladigan ko‘rsatkichlarni qayd etdi.

Oliy malaka toifasiga da’vogarlarning **1 177 nafaridan 306 nafari** (26,0 foizi; o‘tgan yilgi 29 foizga nisbatan 3 foizga kamaygan), 75 foiz va undan yuqori (amaldagi oliy malaka toifasini saqlab qolish) ko‘rsatkichga ega bo‘ldi, **871 nafari (74,0 foizi;** o‘tgan yilgi 71 foizga nisbatan 3 foizga kamaygan) 75 foizdan past (oliy toifadan pasaytirish ko‘rsatkichi) natijani qayd etdi.

Birinchi malaka toifasi bo‘yicha natijalar tahliliga ko‘ra, 3 684 **nafar nomzoddan 1 057 nafari** (28,7 foizi; o‘tgan yilgi 17,7 foizga nisbatan 11 foizga oshgan), 75 foiz va undan yuqori (malaka toifasini oshirish) ko‘rsatkichga, 682 (17 foiz; o‘tgan yilgi 18,7 ga nisbatan 1,7 foizga kamaygan) nafari 65 foizdan 75 foizgacha (amaldagi birinchi malaka toifasini saqlab qolish) ko‘rsatkich, 1 999 (54,2 foiz; o‘tgan yilgi 63,6 foizga nisbatan 9,4 foizga kamaygan) nafari 65 foizdan past (amaldagi malaka toifasini pasaytirish) ko‘rsatkich qayd etdi.

Ikkinchi malaka toifasi bo‘yicha natijalar tahliliga ko‘ra, jarayonda ishtirok etgan 17 656 **nafar pedagogdan 7 629 nafari** (43,2 foiz; o‘tgan yilgi 30 foizga nisbatan 13,2 foizga oshgan) 65 foiz va undan yuqori (malaka toifasini oshirish) ko‘rsatkichga ega bo‘lgan, 1 069 (9,2 foizi; o‘tgan yilgi 39,4 foizga nisbatan 30,2 foizga kamaygan) nafari 65 foizdan 60 foizgacha (amaldagi ikkinchi malaka toifasini saqlab qolish) ko‘rsatkichlarini qayd etgan, 8 398 (47,5 foizi; o‘tgan yilgi 39,8 foizga nisbatan 7,7 foizga kamaygan) nafari 60 foizdan past (amaldagi malaka toifasini pasaytirish) ko‘rsatkich qayd etganini kuzatish mumkin.

Hududlar bo‘yicha tahlilga ko‘ra, respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 61,8 foiz (o‘tgan yilgi 59,7 foizga nisbatan 2,1 foizga oshgan) bo‘lib, bu ko‘rsatkich Namangan (64,3 foiz), Buxoro (63,2 foiz), Navoiy (62,7 foiz), Jizzax (62,2 foiz), Farg‘ona (62 foiz) viloyatlari va Toshkent (62,2 foiz) shahrida respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘ldi. Samarqand (61,4 foiz), Toshkent (58,5 foiz), Andijon (57,8 foiz), Sirdaryo (56,9 foiz), Qashqadaryo (56,6 foiz), Surxondaryo (55,9 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (57,9 foiz), aksincha, past natija qayd etildi.

| № | Hudud nomi | O‘rtacha ko‘rsatkich (foizda) | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2018-y. | 2019-y. | Farqi |
| 1 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 59,7 | 57,9 | -1,8 |
| 2 | Andijon viloyati | 58,8 | 57,8 | -1,0 |
| 3 | Buxoro viloyati | 61,4 | 63,2 | +1,8 |
| 4 | Jizzax viloyati | 58,3 | 62,2 | +3,9 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 56,7 | 56,6 | -0,1 |
| 6 | Navoiy viloyati | 61 | 62,7 | +1,7 |
| 7 | Namangan viloyati | 61,2 | 64,3 | +3,1 |
| 8 | Samarqand viloyati | 55,3 | 61,4 | +6,1 |
| 9 | Surxondaryo viloyati | 58,2 | 56,9 | -1,3 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 55,3 | 55,9 | +0,6 |
| 11 | Toshkent viloyati | 61,2 | 58,5 | -2,7 |
| 12 | Farg‘ona viloyati | 60,3 | 62 | +1,7 |
| 13 | Xorazm viloyati | 61 | 60,2 | -0,8 |
| 14 | Toshkent shahri | 66,9 | 62,2 | -4,7 |
| | Respublika bo‘yicha | 59,7 | 61,8 | +2,1 |

O‘quv fanlari bo‘yicha tahlil qilsak, boshlang‘ich ta’lim, rus tili va adabiyoti (rus), fizika, biologiya, ona tili va adabiyot, matematika, geografiya, o‘zbek tili (davlat tili), kimyo, tarix, ingliz tili kabi o‘quv fanlarida o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, rus tili (milliy maktablarda), nemis tili, iqtisodiy bilim asoslari fanlarida pasayish kuzatildi.

| № | O‘quv fani | 2018-yil | 2019-yil | Farqi |
|---|---|---|---|---|
| | | O‘rtacha ball | O‘rtacha ball | |
| 1 | Qirg‘iz tili va adabiyoti | 53,8 | 61,8 | 8,1 |
| 2 | Boshlang‘ich ta’lim | 60,4 | 67,0 | 6,6 |
| 3 | Rus tili va adabiyoti (rus) | 56,4 | 62,9 | 6,5 |
| 4 | Fizika | 46,6 | 52,7 | 6,1 |
| 5 | Biologiya | 47,4 | 53,0 | 5,6 |
| 6 | Ona tili va adabiyoti | 47,4 | 51,7 | 4,3 |
| 7 | Matematika | 51,5 | 55,7 | 4,2 |
| 8 | Geografiya | 58,7 | 61,9 | 3,2 |
| 9 | O‘zbek tili (Davlat tili) | 68,5 | 71,5 | 3,0 |
| 10 | Kimyo | 45,5 | 48,4 | 2,9 |
| 11 | Turkman tili va adabiyoti | 60,9 | 63,6 | 2,7 |
| 12 | Tojik tili va adabiyoti | 71,0 | 73,4 | 2,4 |
| 13 | Tarix | 50,0 | 52,4 | 2,4 |
| 14 | Milliy istiqlol g‘oyasi | 70,3 | 71,5 | 1,2 |
| 15 | Ingliz tili | 67,8 | 68,6 | 0,8 |
| 16 | Mehnat ta’limi (gazlama) | 64,0 | 64,3 | 0,3 |
| 17 | Davlat va huquq asoslari | 72,7 | 72,6 | -0,1 |
| 18 | Qoraqalpoq tili (Davlat tili) | 64,2 | 63,7 | -0,5 |
| 19 | Jismoniy tarbiya | 60,6 | 60,0 | -0,6 |
| 20 | Qoraqalpoq tili va adabiyoti | 67,6 | 66,6 | -1,0 |
| 21 | Mehnat ta’limi (yog‘och, metall) | 64,9 | 63,8 | -1,1 |
| 22 | Qozoq tili va adabiyoti | 72,5 | 71,1 | -1,4 |
| 23 | Tasviriy san’at va chizmachilik | 63,5 | 60,2 | -3,3 |
| 24 | Fransuz tili | 73,3 | 69,3 | -4,0 |
| 25 | Informatika | 65,3 | 60,5 | -4,8 |
| 26 | Iqtisodiy bilim asoslari | 66,1 | 59,2 | -6,9 |
| 27 | Nemis tili | 66,1 | 58,4 | -7,7 |
| 28 | Musiqa madaniyati | 67,2 | 58,8 | -8,4 |
| 29 | Rus tili (milliy maktablar) | 66,9 | 55,7 | -11,2 |
| | Respublika bo‘yicha umumiy | 59,7 | 61,8 | +2,1 |

**Safarali HAMROYEV,**
**Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo‘lim boshlig‘i**

# "Kadishev"ga qanday boriladi?

Bugun o'zimiz bilib-bilmay, e'tiborsizligimiz, loqaydligimiz sabab ona tilimiz ildizlariga bolta urishda davom etyapmiz. Oddiygina misol: har kuni o'qishga, ishga boramiz. Kun davomida kamida ikki marotaba turli avtoulovlarga ishimiz tushadi.

Manzilimiz yozilgan mashinalarni intizorlik bilan kutamiz. Lekin ko'pchilik yo'lovchilar ularda yozilgan ayrim joy nomlarining bugungi kunda mavjud emasligini xayoliga ham keltirmaydi. Nega? Chunki haydovchining ham, yo'lovchining ham ongiga shu nomlar singib ketgan. Haqiqiy nomini juda kamchilik biladi. Bilsa ham amalda ishlatmaydi. Chunki haydovchiga manzilni aytsa, quruq yelka qisadi. Masalan, "Kadishev"ga desangiz, tabassum bilan manzilingizga yetkazadi.

Shunday nomlardan ayrimlarini keltiramiz. "Skver" — bunday manzil hech qayerda rasman qayd etilmagan. Asl nomi — Amir Temur xiyoboni. "Kadishev" — "Aviasozlar" dehqon bozori mavzesi; "Drujba" — Xalqlar do'stligi saroyi; "Ippodrom" — "Otchopar" mavzesi; "VUZgorodok" — Talabalar shaharchasi; "1-notarius" — Nukus ko'chasi; "SUM" — Toshkent Markaziy univermagi; "Medgorodok" — Shifokorlar shaharchasi; "Alayskiy" — Oloy bozori, "Tekstilniy" — To'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Sorok let" — Ohangaron shohko'chasi… Afsuski, bu nomlar ba'zi avtobuslarda, transport vositalarida eski holida yozilgan.

Xo'sh, jarayon shu taxlit davom etaversa, yoshlarni tarbiyalovchi o'rta va katta avlod vakillari bu nomlarni avtoulovlarga yozaversa, oqibat nima bo'ladi?! Gap tilimiz buzilishining faqat transport sohasidagi holati haqida ketyapti. Bir qarashda ahamiyatsizdek, ammo ko'z yumib bo'lmaydigan holatlar ro'y berayotgan bu kabi sohalar juda ko'p. Nega bunga qarshi amaliy choralar qo'llanmayapti? Fikrimcha, uquvsizligi yoxud burch-vazifasini unutgan bunday kimsalar, xoh u haydovchi bo'lsin, xoh boshqa soha vakili — javobgarlikka tortilishi kerak. Chunki ularning ona tilimizga behurmatligi, bepisandligi tufayli o'zbek tili yo'qolish xavfi bor tillar qatorida turibdi. Aks holda, bora-bora o'z tilimizni boy berib qo'yamiz. Natijada esa mingyillik qadriyatlarimiz, qanchadan qancha ma'naviy va moddiy boyliklarimiz, asr oshgan asarlarimiz o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Bu esa millat fojiasidir.




Gulchehra TO'RAQULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti talabasi

Manzilimiz yozilgan mashinalarni intizorlik bilan kutamiz. Lekin ko'pchilik yo'lovchilar ularda yozilgan ayrim joy nomlarining bugungi kunda mavjud emasligini xayoliga ham keltirmaydi. Nega? Chunki haydovchining ham, yo'lovchining ham ongiga shu nomlar singib ketgan. Haqiqiy nomini juda kamchilik biladi. Bilsa ham amalda ishlatmaydi. Chunki haydovchiga manzilni aytsa, quruq yelka qisadi. Masalan, "Kadishev"ga desangiz, tabassum bilan manzilingizga yetkazadi.

Mahorat Maktabi
Ma'rifat

"Dunyodagi eng yaxshi teatr bu — miyada gavdalangan teatr" deb eshitganim bor. Yaqinda bir kitobni xatm qilayotib, bu so'zlarning nechog'lik to'g'ri ekaniga ishonch hosil qildim. Kitobning nomi — "Ming quyosh shu'lasi". Amerikalik afg'on adibi Xolid Hussayniyning bu asarini siz ham o'qigansiz, ehtimol.

# Mening teatrim

Mutolaa davomida asardagi voqealar ko'z oldimda gavdalana bordi. Ayrim voqealardan quvondim, ayrimlaridan ko'nglim xira bo'ldi. Roman obrazlari bilan birga yashadim, ularga qo'shilib kuldim, yig'ladim. Qo'shni mamlakatdagi urush fojialari, insonlarning har qanday holatda ham yashashga intilishi so'nmasligi tasvirlangan asar ta'sirida qog'oz qoraladim. Ammo shu asar mutolaasi davomida men o'z "teatr"imni kashf etdim. Quvonarlisi, endi istalgan asarni shu sahnada gavdalantirishga urinaman. Arzisa, o'zim rejissor, aktyor, tomoshabin bo'laman. Arzimasa, yana joyiga — javonga qaytib qo'yaman.

Yulduz NORMAMATOVA,
O'zJOKU talabasi

# Lafz qadri qayerda qoldi?

Xalqimizda "Ayol qalbi bilan, erkak lafzi bilan go'zal" degan naql bejiz aytilmagan. Haqiqatan ham bu so'z zamirida olam-olam ma'no mujassam.

Bu purma'no so'zning asl mohiyatiga nazar tashlasak, lafz — bu chin so'zli, ahdida turadigan, va'dasining ustidan chiqadigan insonlarga xos tushuncha. Shu bois ota-bobolarimiz va'da bergandan so'ng bajarish shartligini va bu so'zning qiymati qanchalar bebaholigini ta'kidlab kelgan.

Lafz tushunchasini erkak so'zidan ayro qo'llab bo'lmaydi. Ammo bugungi ayrim yigitlar uchun "lafz" yot tushunchaga aylanib ulgurgani achinarli hol. Boz ustiga "yigit aytadi ham, qaytadi ham" degan hazilnamo naql to'qib, o'zlariga shior qilib olganlari ortiqcha. Lafzida turmagan ikki so'zli kishini kim hurmat qiladi?!

Lafzsizlikni ko'pchilik qarz olib qaytarmaslik deb tushunadi. Ayting-chi, va'daning o'zi qarz emasmi? U puldan ham qimmat turuvchi, sotib olib ham bo'lmaydigan xislat. Lafzsizning million-million puli bo'lmaydimi, u boshqalar oldida hamisha nochor va beburd.

Yodingizda bo'lsa, bir necha yillar muqaddam "Lafz" nomli serial efirga uzatilardi. Serialdagi ikki do'stdan birining lafzsizligi, do'stining haqiga xiyonat qilgan sahnalari hammamizning yodimizda. Lafzsizlik oqibatida uning begunoh dilbandi aziyat chekadi. Shu holat kishini mulohazaga chorlamay qo'ymaydi. Lafzsizning holi — shu. Lafzi halol yigitlar esa oilaning ham, do'stning ham, yurtning ham koriga yaraydi.

Mushtariy USMONOVA,
O'zJOKU talabasi

# "Abituriyentlar shaharchasi"dagi hayotim

2014-yil. Maktabni tamomlashimga bir necha oy qolgan, kelajagim borasida bosh qotirayotgan kezlarim edi. Huquqshunoslikdan fan olimpiadasida ishtirok etganim, shu sohaga qiziqishim baland bo'lgani bois Toshkent davlat yuridik universitetida o'qishni maqsad qilgandim. Bu maqsadga erishish uchun qarshimda ikki yo'l bor edi: biri poytaxtga borib shu sohaga ixtisoslashgan kollejda o'qish, ikkinchisi esa uch yil Qorako'l tumanida repetitorlar nazoratida davlat imtihonlariga tayyorlanish. Men sentabr oyida Qorako'lga borib, o'rta maxsus ta'limni tuman sanoat va transport kollejida davom ettirdim. Tabiiyki, notanish joyga moslashish oson bo'lmadi, ayniqsa, ota-ona mehridan uzoqda yashash juda og'ir edi.

Tumandagi "Saodat" mahallasida joylashgan mo'jaz hovlida yashay boshladim. Uyning egalari juda mehribon bo'lib, meni o'z farzandidek ko'rardi. Bu mahalla yil davomida abituriyentlar bilan gavjum bo'lardi. Toshkentda "talabalar shaharchasi" bo'lsa, Qorako'l "abituriyentlar shaharchasi"ga aylanib ulgurgan. Mahallaning "yuragi"da respublikaga dong'i ketgan Qorako'l akademik litseyi joylashgan bo'lib, bu dargohda yuzlab o'z kasbining ustalari o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beradi. O'qituvchilar litseydagi darslari tugashi bilan uydagi darsxonalariga shoshadi. Negaki, u yerda turli viloyatlardan bilim olish maqsadida kelgan yuzlab abituriyentlar dars boshlanishini kutib turgan bo'ladi. Mahallada yashovchilar ham bu tolibi ilmlarga o'rganib qolgan. Har bir xonadonda o'nlab abituriyentlar bir oila bo'lib yashaydi.

Men Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi bo'lishni maqsad qilganim sababli tarix, ona tili va adabiyot, ingliz tili fanlaridan tayyorgarlikni boshladim. Tarix, ona tili va adabiyotga yuqori ball berilishi tufayli ularni mukammal o'rganishim zarur edi. Ikkala fanning ko'p vaqtni olishi esa ingliz tilidan tayyorlanishga imkon bermasdi.

Maktabimizda tarix fani yaxshi o'qitilgani uchun qiynalmadim, biroq topshiriqlar juda ko'p edi. Haftaning dushanba, seshanba, chorshanba va juma kunlari tonggi 6:00 da boshlangan dars 13:00 gacha davom etardi. Ustoz har bir darslikdan sakkizta mavzuni topshiriq qilib berardi. Har yigirma kunda bitta darslikni o'qib tugatardik. Kitob to'liq o'qib bo'lingach, mavzularni ikki qismga ajratib takrorlardik. Noyabrdan takrorlash darslari boshlanardi. Har bir darslik ketma-ketlik asosida 15 mavzudan qayta o'qib chiqilardi. Bunday darslar kunlik darslarimizdan farq qiladi. Kunlik darsda, avvalo, ustoz 8 ta mavzuni 15 nafar abituriyentdan savol-javob orqali so'rab oladi; so'ng 50 ta ochiq test, 30 ta yopiq test yechib topshiramiz. Shu vaqtning o'zidayoq testlarni tekshiramiz va natijasi past chiqqan abituriyent jazolanadi. Jazo shunday — abituriyent bu mavzularni qayta o'qiydi va test topshiradi. Natijasi qoniqarli bo'lgandagina darsxonadan ketishiga ruxsat beriladi. Kunlik darslarimizda ustoz mavzularni ikki marotaba savol-javob qilardi. Takrorlash darslarimizda esa avval 50 ta ochiq test, 40 ta yopiq test yechamiz va natijalar e'lon qilinadi. So'ng qisqa savol-javob bo'lib o'tadi. Tarix darsliklaridagi har bir so'z, rasm va hech bir jumla nazarimizdan chetda qolmaydi. Yil davomida darsliklar to'rt martagacha o'qib chiqiladi. Har ikki oyda umumiy imtihon olinadi. Unda barcha abituriyentlar qatnashishi shart. DTM testlari darajasida har uch fandan titul varag'iga test javoblarini belgilaymiz. Nazorat juda qattiq bo'ladi. Natijasi ikki kun ichida e'lon qilinadi. Abituriyentlarning ballari shartli ravishda davlat granti va to'lov-shartnomaga ajratiladi. Eng yuqori ball to'plagan besh nafar abituriyentga pul mukofoti beriladi.

Ona tili va adabiyot — bu ikkala fanni alohida o'rgansak-da, testda nega birlashtirib qo'yilganiga haligacha tushunmayman. Adabiyotdan yozuvchi va shoirlarning hayoti, ijodini o'rgansak, ona tilida grammatik qoidalarni o'zlashtiramiz. Ko'p tengdoshlarim qatori tilimizning murakkab grammatikasi va qoidalaridagi chalkashliklarga tushunmay qiynalardim. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz ham o'ta qattiqqo'l edi. Shogirdlariga hatto telefon ishlatishni taqiqlab qo'ygandi. Barchamiz ustozning uyi atrofidagi hovlilarda yashaganimiz sababli istalgan vaqtda bizni tekshirish va nazorat qilish imkoniga ega edi. Kechalari ham abituriyentlari nima bilan bandligidan xabar olardi. Darslar tonggi 6:00 da boshlanar, tushlik uchun ikki soat tanaffus berilar va dars yana kechki 18:00 ga qadar davom etardi. Ertalab 6:00 dan 10:00 gacha o'tilgan mavzu bo'yicha darsxonadagi 40 abituriyentni ustoz savol-javob qilardi. Javob berolmaganlar darsdan chiqarib yuborilardi. Savol-javob tugagach, 60 ta yopiq, 36 ta ochiq test yechardik. Doim eng yuqori natijaga erishgan abituriyentlar mukofot olgan. Shu tariqa darsning birinchi qismi yakunlanar va tushlik uchun ruxsat berilardi.

Bunday o'qituvchilardan ta'lim olar ekanmiz, o'zimiz uchun ortiqcha vaqt qolmasdi. Kunimiz darsda o'tar, kechalari topshiriqlarni bajarardik. Mubolag'asiz aytyapman: kitob bilan uxlab, kitob bilan uyg'onardik. Ustozlarimiz imtihon oladigan kunlari esa hatto ovqatlanishga ham vaqtimizni qizg'anardik. Dunyodan ajralib, talaba bo'lish uchun o'qib izlanardik. Hayotimizda faqat kitoblargina mavjud edi. Davlat imtihonlari yaqinlashgani sari yurakdagi qo'rquv ortib borardi. Ota-onamning ishonchini oqlashim, ustozlarim bergan ta'lim bekor ketmaganini ko'rsatishim kerak edi. Biroq... Men imtihondan o'tolmadim. Ota-onamning qo'llab-quvvatlovi bilan poytaxtda qolib yana bir yil tayyorlanishga qaror qildim. Sekin-asta qarashlarim, fikrlarim o'zgara boshladi. Kasb tanlash borasida ham boshqa to'xtamga keldim. Endi o'zimni jurnalistikada ko'ra boshladim. Yangi tashkil etilgan Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga hujjatlarimni topshirdim va davlat granti asosida talabalikka qabul qilindim. Ko'ngil tinch. Ota-onam, ustozlarim ishonchi oqlandi. Abituriyentlik davrim esa bir umr yodimda qoldi...

Nilufar USMONOVA,
O'zJOKU talabasi

# Yo'limdan qaytmayman!

Esimni tanibmanki, "Katta bo'lsang, kim bo'lasan?" degan savolga "Jurnalist bo'laman", deb javob berganman. U paytlari bu kasbning asl mohiyatini tushunib yetmaganman. Faqat televizordagi boshlovchilargina jurnalist edi tasavvurimda. Biroq yillar o'tdi... Havas bilan yozgan maqolalarim gazeta-jurnal yuzini ko'rdi, tadbirlarda boshlovchilik qobiliyatimni sinab ko'ra boshladim.

Shahrimizdagi akademik litseyda o'qib yurgan kezlarim ham mendan yana "Qanday kasb egasi bo'lasan?" deb so'ray boshlashdi. Yana o'sha orzu, yana o'sha niyat… Biroq bu orzu-istaklar endi maqsadga aylanib ulgurgandi. Ong-u shuurimda jurnalist mashaqqati, mas'uliyati haqida tushuncha shakllangandi. Ustozlardan "Jurnalistning noni qattiq", "Jurnalistni oyog'i boqadi" degan iboralarni ham ko'p eshitganman, ammo "qattiq non"ga, mashaqqatga qaramay, o'z yo'limdan qaytmaslikka qat'iy ahd qilganman.

Vaqt suvday oqib ketdi. Litseydagi ustozlar, o'quvchilar, qarindoshlarim — hamma mening qaysi institutga hujjat topshirayotganim bilan qiziqardi. Vaholanki, barchaga "jurnalistikaga" derdim hech ikkilanmay. So'zlarimga shubha aralash "qiziquvchilar"ning deyarli barchasidan "jurnalistikaning bali juda baland bo'ladi-ku, ijodiy imtihonini pulga sotib olishadi", degan javobni oldim. Bir tomondan haqiqatan shunday bo'lsa-chi, deb vahimaga tushganim ham rost, biroq yuragimdagi olov hech qachon so'nmagan, maqsadlar gulxani borgan sari alanga olgan.

Kunlar o'tib, oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish vaqti keldi. Guruh rahbarimiz: "Direktor aytyapti, jurnalistikaga kirish qiyin ekan. Undan ko'ra, shahrimizdagi pedagogika institutiga o'qishga topshirsang, davlat grantida o'qiysan. Haliyam o'ylab ko'r. Agar kirolmasang, litseyimiz o'quvchilarining OTMga kirish bo'yicha foiziga putur yetadi", deb qolsa bo'ladimi. Kulgim keldi. "Mening orzularim-chi? Ularni hech kim inobatga olmaydimi?!", degan so'zlar o'tdi xayolimdan. Men yakuniy qarorga kelib bo'lgan edim...

Hujjatlarimni topshirish uchun Toshkentga keldim. Afsuski, yomon xabar ustidan chiqdim. Shuncha yil imtihon bloklarida bo'lgan tarix fani endi olib tashlanibdi. Ona tili va adabiyot, chet tili fanlaridan test topshirib, ijodiy imtihondan o'tiladi, xolos. Miyamda birdan "Nega unda uch yil umrimni tarix sahifalarini yodlashga sarfladim", degan fikr aylandi. Ayni shu daqiqalarda, boshim qotdi: endi nima bo'ladi, boshqa universitetga hujjat topshirsammi? Men bilan barobar xabarni eshitgan onam dalda berib, "Ko'nglingni xotirjam qilib, shu yerga topshir. Bu kunlarni sen necha yildan beri orzu qilasan", dedi. Dadam ham "Men senga ishonaman. Buni uddalaysan", deya yupanch bo'ldi. Ota-onamning so'zlari menga tog'dek kuch ato etdi. Hech qo'rqmay, hujjatlarimni Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining internet jurnalistikasi yo'nalishiga topshirdim.

Ijodiy imtihondan o'zim kutgan yaxshi ball oldim. Biroq buni eshitib, "To'g'risini ayt, kimning yordami bilan olding?", "Qancha ketdi bu balni olishing uchun?", deganlar ham bo'ldi. Ortiqcha gap-so'zga e'tibor bermay, test sinovlariga tayyorlanishda davom etdim. Shuncha payt testni qanday topshirasan, deya menga tinchlik bermagan yuragim, sinov kuni xotirjamlik libosini kiydi. Qo'rqmay, hayajonni bir chetga surib, ikkita fandan test ishlab chiqdim. Imtihonlarni yakunlagach, javoblarini intizorlik bilan kutdim. Bu paytda bir kuning bir yildek o'tarkan. Yuragimni hovuchlab, DTMdan kelgan xabarnomani ochdim: Siz o'qishga davlat granti asosida qabul qilindingiz!..

Mahfuza PO'LATOVA,
O'zJOKU talabasi

Xivaga borishingiz bilanoq yuzingizga tarix nafasi uriladi. Oyog'ingiz ostidagi toshlarga ne-ne ulug'larning qadami tegmagan, qancha janglarga guvoh bo'lmagan.

# Minora devoridagi "dil izhorlari"



Ichanqal'a! Hammasi tarix, har yerda bir sinoat yashirin. Ansamblning go'zal minoralari orasida Islomxo'ja minorasi alohida joziba kasb etadi. Islomxo'ja madrasasi oldida qurilgan bu minora o'zining hashamati va chiroyi bilan hayratga soladi. 51 metrlik inshootga 118 ta aylanma zina orqali ko'tarilasiz. Qorong'i, odamni biroz cho'chitadigan yo'laklardan yuqoriga chiqqaningizda butun Xiva kaftdagidek namoyon bo'ladi. Ammo bu minora devorlari "zamonaviy izhorlar" bilan to'la. Kimdir sevgisini yozgan, boshqasi o'z ismini, yana birov esa "yurak"ning suratini muhrlagan.

Uyingizga kimdir kelib biror narsangizni buzsa, jahlingiz chiqadi-ku, millatning uyini buzayotganlarga qanday xotirjam qaraysiz?! Bir o'ylab ko'ring-a, yuzingizga husnbuzar toshsa, qanday holatga tushasiz? Ko'zguga ham qaragingiz kelmay qoladi, shundaymi? Axir, bu minoralar millat tarixining yuzi emasmi? Yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun harakat qilinayotgan bir davrda o'zimizni uyatga qo'ymayapmizmi?

Azizabonu ABDURAHIMOVA,
O'zJOKU talabasi

# Amaliy ishlarga o'tishimiz zarur

Xalqimiz orzu-havasli. To'y qilsam, elga osh bersam, deydi. Yillab yiqqanini el oldiga dasturxon qilib yozadi. Bu asriy odatlarimizdan. Ammo ko'p vaqtlardan buyon mavjud odatlarimizga yangilik kiritamiz deb uni bo'yab-bejab, jo'nlashtirib qo'ymayapmizmi?

Kimo'zarga to'y-tomosha qilib, mana ko'rib qo'y mening hotamtoyligimni deb soxtalik, isrofgarchilik qilmayapmizmi? Shunday katta to'y qilaylikki, dovrug'i Dog'istonga yetsin deyayotganlar, har ikki taraf — qudalar bir-birining imkoniyatini chamalab ish ko'rsa mayli edi, ammo boyroq tomon o'zining shartlari bilan ikkinchi tomonga ortiqcha yuk bosib qo'yayotgan holatlar kam deysizmi? "Eldan qolmaslik uchun" bel bog'lagan ikkinchi tomon borini sotib, qarz-qurzga botib bo'lsa-da, shartlarni bajaradi. Katta hasham bilan o'tgan to'ydan so'ng yangi oila baxtli bo'lsa mayli, deydi-da. Taassufki, doim ham shunday bo'lmayapti. Osmondan olib emas, o'zim bilgan, ko'rgan, eshitgan voqealarga tayanib aytyapman bu gaplarni.

Bu mavzuda ham juda ko'p gapirildi, tanqid-u tahlil qilindi. Ammo natija bo'lmadi. Amaliy ishlarga o'tishimiz kerak, degan fikrdaman. Aks holda, ajrimlar sonini hisoblash, statistika yuritishdan nariga o'tmaymiz. Shunisi alamli.

Gulmira SAFAROVA,
O'zJOKU talabasi

# So'nggi qo'ng'iroq yodi

Katta orzularimdan biri amalga oshib, oliy o'quv yurti talabasi bo'ldim. O'qituvchilarimning bergan bilimlari, chekkan zahmatlari va intilishim sabab o'zim xohlagan universitetga o'qishga kirdim. Inson umri ma'lum boshqichlardan iborat ekan.

Har bir bosqichdan mardonavor o'tganlar keyingi bosqichda qiyinchiliklarga uchramaydi. Qaysi bosqichga o'tmaylik, ularning barchasiga poydevor — maktab va o'sha davrda olingan bilim hamda ta'lim-tarbiyadir.

Bugun so'nggi qo'ng'iroq. Ertalabdan sinfdoshlar bilan telefon orqali bog'lanib, bir-birimizni esladik. Maktab davrida eng namunali sinf deb topilganimiz, ustozlardan eshitgan maqtovlar-u, qilgan sho'xliklarimiz… Barchasi xuddi kechagidek yodimizda. So'ngi qo'ng'iroq — bu so'zlarni eshitgan har bir yurakda o'zgacha entikish, hayajon va ajib tuyg'u zohir bo'ladi. Bundan 7 yil oldin Buxoro shahridagi 17-maktabda katta tantanalar bilan o'tgan bitirish marosimi har bir bitiruvchi qalbida bir umrga muhrlandi. O'sha kuni tabiatning tarovati, osmonning musaffoligi boshqacha edi. Kimlarningdir ko'zida quvonch, yana kimningdir qayg'uli nigohi, o'qituvchilarimizning mehr-la boqishlari…

Bayram boshlanish arafasida maktab hovlisida bir gala qaldirg'och paydo bo'lib, yig'ilganlarning boshi uzra aylanishi barchamizni hayratga soldi. Qisqa vaqt davom etgan qaldirg'ochlar chug'ur-chug'uri biz bitiruvchilarning dilimizga yorug'lik soldi. O'shanda so'zga chiqqan maktab direktori qaldirg'ochlar insonning do'sti, ezgulik va musaffolik ramzi ekanini aytib, bu hodisa faqat va faqat yaxshiliklar keltirishi haqida so'zlagan edi. Biz shundan buyon qanday muvaffaqiyat va yutuqqa erishsak, ana shu voqeani eslaymiz. Bir necha yillar oldin ba'zi tushunmovchiliklar sabab oramiz buzilgan yaqin dugonam bilan araz-ginalarni unutib, endi hech qachon urushmaslikka ahdlashdik. So'nggi qo'ng'iroq do'stlarni bir-biridan yiroqlashtirsa, bizni qayta birlashtirgan edi.

Manzura KAMOLOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Sahifalarni S.MUSTAFOYEV va S.ZIYODOV tayyorladi.

# Tilimizni himoya qilish muhim!

Dunyoda salkam 8 milliard aholi yashaydi. Ular turli mamlakatlarda istiqomat qilish bilan birga, turlicha an'ana-yu urf-odatlar, qadriyatlar, bir-birinikiga o'xshamaydigan turmush tarzi asosida hayot kechiradi.

Jahonda minglab tillar bor. Bilamizki, insoniyat taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yib, mamlakatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va boshqa ko'plab sohalarda do'stona aloqalar o'rnatila boshlagach, chet tillarni o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Natijada ayrim tillar vaqt o'tgani sari dunyo miqyosida tan olinib, bir necha yuz million, odam so'zlashadigan dunyo tillariga aylandi.

Geografik nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, bugun ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarning aksariyati ko'plab sohalarda yetakchi hisoblanadi. Chunki dunyo miqyosidagi barcha turdagi ma'lumotlarning 80 foizi ingliz tilida jamlangan. Demak, birgina ingliz tilini mukammal bilish ilm olamidagi eng muhim ma'lumotlar, yangiliklar va durdona asarlar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Bugun xorijiy tillarni o'zlashtirish natijasida har yili tilimizga 20 ga yaqin xalqaro so'zlar qo'shilmoqda. Ammo ularning ba'zilari hatto o'z ona tilimizdagi so'zlarni siqib chiqarayotgani achinarli hol. Masalan, boshqaruvchi so'zini menejer so'ziga almashtirdik. Dorilfunun so'zini esa ko'pchilik bilmasa ham kerak. Chunki uni allaqachon "universitet"lashtirib yuborganmiz. To'g'ri, xorijiy so'zlarning hammasini ham o'zbekchalashtirishning iloji yo'q. Ammo kelajak avlod oldida barchamiz imkon qadar o'z ona tilimiz — o'zligimizni himoya qilishga mas'ul ekanimizni unutmasligimiz joiz.

**Gulbahor SAFOYEVA,**
**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali akademik litseyi o'qituvchisi**

# Malakali mutaxassislar maktabi

Yurtimizda malaka oshirish tizimi ham sifat jihatdan yangilanib bormoqda. Bu fikrga yaqinda Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi tarmoq markazida malaka oshirish jarayonida guvoh bo'ldik. Markazda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish maqsadida xorijlik mutaxassislar jalb etilgan. Jumladan, Li.Y.M. (Seul pedagogika universiteti), Svetlana Kabachevskaya (Belarus davlat pedagogika universiteti), Tatyana Savchenko va Pavel Xodirev (Udmurt davlat universiteti) kabi o'z sohasining ustalari seminar-trening va mahorat darslari o'tkazdi.

Yurtimizda masofaviy va mustaqil ta'lim keng tatbiq etilmoqda. Demak, professor-o'qituvchilar ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishi, masofadan o'qitish va mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnologiyalarni chuqur o'rganishi zarur. "Ta'limda ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish" modulida bu borada keng ma'lumotlar berildi. Jumladan, iSpring dasturida taqdimot fayllarini bir necha formatlarda konvertatsiyalash; taqdimot kontentiga tashqi resurslarni kiritish; taqdimot kontentini muhofaza qilish: taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotning faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»; video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish; elektron test-(nazorat)larni yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan; masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun mos keluvchi kurslarni yaratish; videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish; "YouTube"ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish kabi eng muhim ko'nikmalarni egalladik.

Markaz faoliyatida Blended Learning imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda. Aralash ta'limda ham auditoriyada, ham onlayn ravishda o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. O'quv mashg'ulotining bu turida ta'lim oluvchilar auditoriyadan o'qituvchi bilan yuzma-yuz ko'rishib ta'lim olishi va auditoriyadan tashqarida onlayn ravishda masofali ta'lim tizimlari orqali mustaqil ravishda ta'lim olishi mumkin. O'qitishning bunday tashkil etilishi materialni o'qish vaqti, tezligi, yo'li va joyini boshqarish imkoniyatini beradi. Aralash ta'lim an'anaviy metodika va dolzarb texnologiyalarni birlashtirish imkonini beradi.

Tinglovchilarning o'quv mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida qator tadbirlar va ijodkorlar bilan uchrashuvlar ham o'tkaziladi. Xususan, "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusida ilmiy seminar tashkil etildi.

**Muslima BOZOROVA,**
**TerDU dotsenti**
**Nilufar O'RINOVA,**
**FarDU dotsenti**
**Nigora OCHILOVA,**
**QarDU o'qituvchisi**

# "Bizda kitob o'qishga rag'bat shunday uyg'otilardi..."

Aksariyatimiz o'zaro gurung tizginini bugungi yoshlar kitob o'qimay qo'yganiga burishni odat qilganmiz. Ammo buning asl sababini izlashga e'tibor ham bermaymiz. Aslida bugunning yoshlari o'z o'tmish tengdoshlaridan izlanuvchanligi, dunyoqarashi kengligi bilan farqlanib turadi. Negaki, ularda imkoniyatlar bisyor. Ilgari o'zing istagan asarni topish uchun qishloqdan ancha olis shahardagi kam sonli kitob do'konlari peshtaxtalarini titkilab, o'shanda ham baxting chopsa, izlagan kitobingni qo'lga kiritish mumkin edi.

Bugun o'tirgan o'rningda kompyuter yoki smartfonni internet tizimiga ulab, "gugl" tugmachasi orqali sevimli yozuvching nomini "qidiruv"ga berishning o'zi kifoya. Tag'in noshirlik ishiga chuqur nazar tashlasak, hamma asarlar ham vaqtida nashr etilyapti, deb bo'lmaydi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazib boshlaganidan so'ng bu sohadagi kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

— Domla, "Tom tog'aning kulbasi" degan asarni o'qiganmisiz?

— Ha, Garriet Bicher Stounning romani, qora tanlilarning ayanchli taqdiri haqida hikoya qilinadi.

— Shu kitobni topib berolmaysizmi?

— Afsuski, yo'q. Bolalik chog'larim, o'tgan asrning oltmishinchi yillari bir qo'limga tushgandi, keyin nashr etilganini eshitmaganman...

Tanlovda ishtirok etishni niyat qilgan yosh kitobxon tanishlarim menga tez-tez shunday savollar bilan murojaat etishadi. Kitobni topib berish imkoni bo'lmagach, qo'limdan kelgancha xotiralarni titkilab, gapirib berishga urinaman. Lekin qisqacha mazmunni tinglagan — boshqa, asarni qo'lga olib, mutolaa qilgan — boshqa. O'tmishda maktab kutubxonalari ancha boy edi. Mustaqillikning ilk yillari nashriyot yoki to'rt bosh harf bilan ataladigan imperiya nomi bahona ming-minglab sara asarlarga "milliy istiqlol g'oyasiga zid" tamg'asi bosilib, kutubxonalar fondidan chiqarib tashlandi. Mamlakatimiz miqyosida inson kapitaliga, aholining kitobxonlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda javonlardan noo'rin quvg'in qilingan o'sha kitoblar qadri yaqqol sezilyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining noshirlik ishini yanada takomillashtirish, kitobxonlik targ'ibotini kuchaytirish borasida bergan ko'rsatma va yo'riqlarida bu sohadagi ishlar ko'lami aniq belgilanib, nufuzli ishchi guruh tomonidan yosh kitobxonlar o'qishi tavsiya etilgan jahon va o'zbek adabiyotining eng sara namunalari ro'yxati tuzilib, qisqa muddatda undan o'rin olgan asarlarni keng kitobxonlar ommasiga tuhfa etish ishlari yo'lga qo'yildi. Yurtboshimizning yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatini oshirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan besh tashabbusi maktab kutubxonalari fondini mustahkamlashning yangi, yorqin ufqlarini ochdi. Yaqinda maktabimiz sobiq bitiruvchilaridan bir guruhi "Qadrdon maktabimga kitob sovg'a qilaman" tashabbusi doirasida kutubxona fondiga ikki yuz nomdan ziyod adabiyot taqdim etishdi.

— O'quvchilik yillarimiz sinfimizga rahbarlik qilgan matematika fani o'qituvchisi Oqmamat Bo'tayev har darsga yangi kitob olib kirishni odat qilgandi, — deb eslaydi viloyat soliq boshqarmasi xodimi Rustam Andayev. — Yangi mavzuni boshlashdan oldin, albatta, adabiyot olamida "sayohat qilardik". O'tilgan mavzu bo'yicha eng yaxshi tayyorlanib kelgan o'quvchiga ustoz o'zi olib kelgan kitobni mutolaa qilish uchun berardi. Bu sovg'aga loyiq topilganimiz, keyingi darsda ham ishonchni oqlash uchun bor vujudimiz bilan tayyorgarlik ko'rardik. Bizda kitob o'qishga rag'bat shunday uyg'otilgandi. Bola uchun kitobdan qimmatroq sovg'aning o'zi yo'q. Shunday ekan, xayrli tashabbusga bosh qo'shish har birimizning burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

**Abdunabi ABDIYEV,**
**Mirishkor tumanidagi 22-maktab direktori**

Abituriyentlar diqqatiga!

# Test sinovlariga oid ommabop savollarga javoblar

Prezidentimiz tomonidan shu yil 14-mayda qabul qilingan 4319-sonli qarorga muvofiq talabalikka test sinovlari orqali qabul qilish bo'yicha kiritilgan yangilik hamda o'zgarishlar yuzasidan abituriyentlar ko'proq ijtimoiy tarmoqlar orqali murojaat qilmoqda. Bugungi kunda qaror asosida test sinovi orqali qabulning tegishli mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Vazifa va talablarni amalga oshirishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilgandan keyin barcha savollarga batafsil javob berish mumkin. Shunday bo'lsa-da, ijtimoiy tarmoqlar orqali berilayotgan savollarga javob berib borishga harakat qilamiz.



**▶ Hujjatlarni topshirish qachondan boshlanadi?**

— Hozircha amaldagi tartib o'zgargani yo'q. Alohida qayd etish kerakki, ta'lim yo'nalishlari ro'yxati ishlab chiqilgach va joriy yil uchun kvotalar tasdiqlangach, qabul boshlanadi.

**▶ Imtiyozlar sirtqi ta'lim yo'nalishlariga ham o'tadimi?**

— Ma'lumki, sirtqi, kechki ta'lim yo'nalishlarida o'qish to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shuni hisobga olsak, davlat granti asosida o'qish huquqini beruvchi imtiyozlar ushbu ta'lim turlariga tatbiq etilmaydi.

**▶ Videokuzatuvning sifati oshadimi?**

— Albatta. Bu yil o'tgan yili ishlatilgan statsionar videokameralar o'rniga keng imkoniyatli videokameralar o'rnatilishi rejalashtirilgan. Ular sifatli videotasvir va ovozni sifatli yozib olish hamda binolardagi test jarayonini keng diapazonda yoritish imkoniyatiga ega.

**▶ Sirtqi ta'lim shaklida ham uchta ta'lim yo'nalishini tanlash yo'lga qo'yiladimi?**

— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-apreldagi 360-sonli qarori asosida amaldagi tartibga kiritilgan o'zgarishlarga binoan oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish **Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq** Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan kirish test sinovlari **yoki** oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan kirish imtihonlari (kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) orqali tanlov asosida amalga oshiriladi. Agar Davlat komissiyasining qaroriga ko'ra, sirtqi ta'lim shakli qabuli uchun Davlat test markazi tomonidan test sinovlari o'tkaziladigan bo'lsa, imtiyoz sirtqi ta'lim shakli uchun ham tatbiq etiladi.

**▶ Oldingi yillarda ta'lim muassasalarini tugatgan abituriyentlar eng kam ish haqining 50 foizi miqdoridagi summani qayerga to'laydi? Joylardagi Davlat xizmatlari markazlarigami?**

— Mazkur tartib bo'yicha tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda to'lovni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bu haqida qo'shimcha e'lon beriladi.

**▶ Yangiliklarga doir savollar bilan kimga murojaat qilish mumkin?**

— Davlat test markazida **Call center** tashkil etilgan, unga 1195 qisqa raqami orqali murojaat qilish, darhol javob olish yoki "Telegram" kanalidagi *"DTM_direktor_xat"* orqali savollar berish va tezkor javoblar olish imkoniyati mavjud.

**ISH TARTIBI:**

**kuni** — dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma;

**vaqti** — soat 09:00 dan 18:00 gacha;

**tushlik** — soat 13:00 dan 14:00 gacha.

**▶ 2019/2020-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarini topshiradigan abituriyentlar tayyorgarlik ko'rish uchun qaysi darsliklardan foydalanishi zarur?**

— 2019/2020-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish uchun ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari tomonidan tavsiya etilgan darsliklardan foydalanish mumkin (ro'yxat DTM saytida va "Ma'rifat" gazetasida (10-aprel) e'lon qilingan).

Test topshiriqlari amaldagi tartibga binoan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga muvofiq tuziladi.

Joriy yilda test sinovlariga tayyorgarlik ko'rishda foydalanishga tavsiya etilgan darsliklar bilan birgalikda o'quv dasturlarida o'rganish nazarda tutilgan ayrim badiiy adabiyotlar keltirilgan. Test topshiriqlari ham ushbu badiiy adabiyotlar asosida tuziladi. Mazkur adabiyotlarni to'liq o'qib chiqish tavsiya etiladi.

Abituriyentlar o'zi o'qiydigan (yoki bitirgan) ta'lim muassasasi uchun tavsiya etilgan darsliklarni o'qishi zarur. Boshqa ta'lim turi yoki ta'lim muassasalari uchun tavsiya etilgan darsliklarni o'qish talab etilmaydi.

Test topshiriqlari tegishli ta'lim muassasalari uchun tavsiya etilgan o'quv dasturlari asosida tuziladi.

Abituriyentlar uchun savollar kitobini shakllantirishda ular bitirgan ta'lim muassasasi turi, ushbu turdagi ta'lim muassasalarida foydalanishga tavsiya etilgan darsliklar inobatga olinadi.

**▶ Test savollarida xaritalar, grafikalar ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin?**

— Geografiya fanidan abituriyentlar topografik shartli belgilarni bilish, topografik xaritalarda relyefni gorizontallar orqali tasvirlay olish, yo'nalish azimuti va uni aniqlash, nuqtaning geografik kengligi va uzunligini aniqlash, daraja to'ri orqali masofalarni aniqlash, havo harorati va atmosfera bosimini aniqlash, joyning geografik koordinatalarini, soat mintaqalari, mahalliy vaqt va mintaqa vaqtini hisoblash kabi bir qancha topshiriqlarni bajara olishi kerak.

Shularni hisobga olib, *www.dtm.uz*.da geografiya va boshqa fanlardan amaliy topshiriqlarni bajarishga oid tavsiyalar berilgan. Buning uchun saytning "Foydali ma'lumotlar" bo'limiga kirib, "Namunaviy test topshiriqlari va ularni yechish bo'yicha tavsiyalar" qismiga kirish va fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlar, ularni yechishga oid tavsiyalar bilan tanishish mumkin.

**▶ 3 ta ta'lim yo'nalishini tanlash yuzasidan to'liq ma'lumot bera olasizmi?**

— Joriy yildan boshlab abituriyentga 3 tagacha oliy ta'lim yo'nalishini tanlash huquqi berilmoqda. Ta'lim yo'nalishlarini tanlashda oliy ta'lim muassasalarining soni, jug'rofiy joylashuvi ahamiyat kasb etmaydi. Masalan, 3 ta ta'lim yo'nalishi 1, 2 ta yoki 3 ta oliy ta'lim muassasasidan tanlanishi, oliy ta'lim muassalari abituriyent yashaydigan hududda yoki Toshkent shahrida, yoki viloyatlarda joylashgan bo'lishi mumkin. Biroq tanlashda e'tibor qaratilishi shart bo'lgan jihatlar mavjud.

Birinchidan, ta'lim yo'nalishlarini tanlashda test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi (fanlar ketma-ketligi, baholash mezonlari) bir xil bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, abituriyent tomonidan ta'lim yo'nalishlariga ustuvorlik belgilanadi.

Uchinchidan, to'plagan bali miqdori birinchi ustuvorlik berilgan ta'lim yo'nalishiga xoh davlat granti, xoh to'lov-kontrakt bo'yicha tavsiya etishga yetsa, ikkinchi va uchinchi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok eta olmaydi. Agar birinchisiga yetmay, ikkinchisiga yetsa, demak, uchinchi ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etolmaydi.

Agar abituriyentning test sinovi natijalari tanlangan ta'lim yo'nalishining birinchisiga to'lov-kontrakt, ikkinchisiga davlat granti bo'yicha o'qishga yetsa ham, u birinchi ustuvorlik bergan ta'lim yo'nalishiga to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etiladi. Ikkinchisida davlat granti bo'yicha o'qishi mumkin emas.

**Davlat test markazi matbuot xizmati rahbari Orziqul BOBOYEV tayyorladi.**

Davlat test markazida **Call center** tashkil etilgan, unga 1195 qisqa raqami orqali murojaat qilish, darhol javob olish yoki "Telegram" kanalidagi *"DTM_direktor_xat"* orqali savollar berish va tezkor javoblar olish imkoniyati mavjud.

# Kitob o'qish oliy saodatdir

Kitob musibatli damda yordamga keluvchi do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ustoz, baxtiyor kunlarimizning asl sababchisi. Kitob o'qigan kam bo'lmaydi. Niholning o'sishi, gullashi uchun suv naqadar zarur bo'lsa, kishining kamol topishi uchun kitob shu qadar zarurdir. Kitobxonlik — ta'lim-tarbiyaning asosiy bo'g'ini, o'qish — hayotning eng buyuk falsafasi, muvaffaqiyatlar kalitidir.



— Adabiyot insoniyat yaratgan eng ta'sirchan, eng go'zal kashfiyot, — deydi 2018-2019-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibasi bo'lgan Zamira Ayimbetova. — Insonning o'zini anglashi, to'g'ri yo'l tanlashi, dunyoqarashining yuksalishi u o'qigan kitoblarga bog'liq. Bolaligimdan badiiy asarlarni sevib mutolaa qilardim. Bu mening sevimli ishimga aylandi. O'zim sevgan, o'zim qiziqqan sohani tanladim. Hozir Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistrantiman. "I.Yusupovning liro-epik poemalari: g'oyaviy-mavzuviy, janriy-uslubiy o'ziga xosliklari. Qahramon obrazi" mavzusida ilmiy izlanish olib boryapman. O'z ishimdan olam-olam zavq olaman, ko'nglim doim shod.

Ko'pincha insonning kelajagi uning bolalikda olgan dastlabki taassuroti, hayajoni asosiga quriladi. Shu bois ota-ona, ta'lim muassasasidagi o'qituvchi, ustozlar yoshlar qalbini kitobga muhabbat bilan to'yintira olishi, hayotimizda bu bebaho merosning naqadar yuksak o'rin egallashini ko'rsata bilishi kerak.

— O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish maqsadida turli bayram va taniqli adiblarning tavallud kunlari doirasida tadbirlar, shoir-yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazib kelyapmiz, — deydi Kegeyli tumanidagi 39-maktab kutubxonachisi Paro'azxon Nurkashova. — Har mavsumda "Eng ko'p kitob o'qigan kitobxon", "Kitobxonlar sahnada" bellashuvlari "Men sevgan ertak qahramoni" rasmlar tanlovini o'tkazib, bilimli, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirib kelyapmiz. Yaqinda Yoshlar ittifoqi tomonidan 36 nomdagi o'zbek va jahon adabiyoti durdonalari kutubxonamizga sovg'a tariqasida berildi. Bu xushxabarni eshitib, o'quvchilar navbat bilan talashib-tortishib kitob o'qishga kirishdi. Yoshlarimiz kitob o'qiyapti. Faqat muammo — kutubxona fondini boyitish kerak.

To'g'ri, kutubxonalarimiz nechog'lik taraqqiy etsa, kitobxonlar qancha ko'paysa, ko'zlagan maqsadimizga tezroq yetamiz. Donishmandlardan biri aytganidek, "Inson aqlini charxlash yo'lida hamyonini bo'shatar ekan, hech kim uning aqlini olib qo'yolmaydi. Bilimga sarflangan sarmoya eng katta daromad keltiradi". Bu haqiqatni xalqimizga, yoshlarimizga tushuntirish, o'rnak ko'rsatish maqsadida keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yilgan. Misol sifatida ikki yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovini aytib o'tish o'rinli. Bu yil mazkur tanlovning respublika bosqichida 15—19 yosh toifasida Kegeyli tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Nursulu Kokanova mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritib, Prezident sovg'asi — "Spark" avtomobili bilan taqdirlangan edi. Bu muvaffaqiyat g'olibaga tuganmas kuch-quvvat bag'ishlagani shubhasiz.

— Bu nafaqat mening, balki ota-onam, ustozlarim va do'stlarimning yutug'i, — deydi Nursulu. — Chunki bir o'zing o'qigan boshqa, ko'pchilik bilan o'qib, fikr almashgan boshqa. Kitob mazmunining xotirada yaxshi saqlanib qolishining boisi ham o'qiganingni uqib, o'zgalar bilan fikrlashishingda. Bu xuddi quvonchingni do'stlar bilan baham ko'rishga o'xshaydi. Birgalikda, birdamlikda qilingan ish xayrli bo'ladi. Tanlovga tayyorgarlik jarayonida ota-onam, ustozlarim men bilan tengma-teng kitob o'qidi, ayrim kitoblarni respublika kutubxonalari, kitob do'konlaridan olib keldik. Mehnatimiz o'z natijasini berib, ishonchni oqlaganimdan baxtiyorman. Bu tanlov — kitoblar orzu-niyatlarimizga yetishishda eng yaqin ko'makdosh bo'lishining, bilim baland cho'qqilarga olib chiqishining isbotidir.

Kitobga, kitobxonlikka katta e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda maktablar, umuman, ta'lim muassasalari kutubxonalarini ham talab darajasida jihozlash, kerakli adabiyotlar bilan ta'minlash masalasi oldimizda turgan muhim vazifadir. To'g'ri, biz izlagan asarlarni boshqa joylardan topish mumkin. Ammo maktab kutubxonasida qancha kitob fondi bo'lishi kerak? Bu o'quvchi soniga bog'liqmi yoki boshqa talablargami? Aslida, bir inson, bir ta'lim muassasasi uchun shuncha kitob yetarli deb cheklanib bo'lmaydi. Lekin xalqimizning boy merosi hisoblangan xalq og'zaki ijodi, yirik adiblarimiz va jahon adabiyotining durdona asarlari har bir kutubxonadan topilishi kerak. Masalaning moliyaviy tomonini hisobga olsak, kutubxona masalasida yirik tashkilotlar qatori ota-onalar, o'qituvchilar homiyligidan foydalanish mumkin. Yurtimizda "Bir farzandga uch kitob" kabi aksiyalar o'tkazib kelinmoqda. Ammo bu usul hali kutilgandek natija bermayapti. Ayrim ota-onalargina maktab kutubxonasi uchun yiliga bir-ikki kitob sovg'a qilishi, ko'pi bunga majbur emasligini iddao qilayotgani sir emas. Ota-onalar yig'ilishlarida bu ishning muhimligini hayotiy misollar bilan, ta'sirchan tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish kerak. Yiliga har bir ota-ona, har bir o'qituvchi maktab kutubxonasi uchun kamida bir donadan kitob sovg'a qilsa, besh-olti yilda kutubxona ancha boyirdi. Nazarimda, muammoni quyidan yechishning eng samarali usuli bu. Katta natijaga ham kichigidan boshlab erishiladi, katta toqqa ham pastdan chiqiladi. O'zimizda mavjud muammoni kimdir kelib, hal qilib berishini kutib o'tirish zamondan orqada qolish emasmi?! Qo'ldan keladigan ishni qilish kerak. Xalq — katta kuch. Oila, mahalla, maktab birdamligi ko'plab muammoni o'z joyida hal qilishga qodir.

Nukus shahridagi 31-IDUM kutubxonasi 18 759 kitob fondiga ega. Shundan 2 000 dan ortig'i badiiy adabiyotlar. Kutubxonachi Gulziyra Murtazayevaning aytishicha, har kuni 20 nafar o'quvchi kutubxona xizmatidan foydalanadi.

Mazkur ta'lim muassasasidagi muammo sifatida 3- va 8-sinflar uchun ayrim darsliklar yetishmasligini aytib o'tish kerak. Bu yerda o'qish qoraqalpoq, qozoq va rus tillarida olib boriladi. Muassasada kutubxona bilan birga axborot-resurs markazi ham faoliyat yuritmoqda. 23 659 kitob fondi, 1 500 elektron kitob va 12 nomdagi gazeta-jurnallar bilan ta'minlangan ARM xizmatidan har kuni o'rtacha hisobda 40 nafar o'quvchi va o'qituvchilar foydalanadi.

— Ko'plab kitoblarimiz eskirgan, shu qatori kirill alifbosida chop etilgan, — deydi ARM xodimi Raya Yusupova. — Qaniydi, shu adabiyotlarimiz lotin alifbosida qayta nashr etilsa. Bolalar adabiyoti ham kam. Bu tarjimaga borib taqaladi. Adabiyotni yaxshi o'zlashtirgan tarjimonlarga zarurat katta. Ular chet el bolalar shoir-yozuvchilarining asarlarini ona tilimizga tarjima qilishsa, yaxshi bo'lardi.




Kutubxona — ta'lim muassasasining yuzi, yoshlarning eng sevimli maskaniga aylanishi kerak. Aytishadi-ku, kitob saodat topish uchun o'qilmaydi. Unutmaslik kerakki, kitob o'qishning o'zi — oliy saodatdir.

— Ko'plab kitoblarimiz eskirgan, shu qatori kirill alifbosida chop etilgan, — deydi ARM xodimi Raya Yusupova. — Qaniydi, shu adabiyotlarimiz lotin alifbosida qayta nashr etilsa. Bolalar adabiyoti ham kam.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

# Mehrga qonsin bolalik!

Do'stlik tumanidagi 6-maktab o'quvchilaridan iborat "Yangi liderlar" jamoasi 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan bayram dasturi o'tkazdi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. O'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ta'lim muassasasida iqtidorli o'quvchilardan tarkib topgan "Yangi liderlar" jamoasi tadbirda turli-tuman satirik sahna chiqishlarini namoyish etdi.

— Murg'ak qalb egalarini Vatanga muhabbat, milliy urf-odatlarimizga sadoqat, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashda yon-atrofidagilarning o'rni, ta'siri katta, — deydi maktab direktori G'ayrat Yahyoyev. — Navro'z shaharchasidagi mahalla faollari, ota-onalar ishtirok etgan tadbirda ta'lim maskanimizning "Quvnoqlar va zukkolar" yo'nalishidagi jamoalari sahnaga olib chiqqan lavhalar barchaga manzur bo'ldi.

**Dilshod RO'ZIQULOV,**
**"Ma'rifat" muxbiri**

# Mehnatlari samarasidan ruhlanib

Maktabimizning boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlagan ko'rgazmali qurollar "Eng yaxshi ko'rgazmali vositalar" ko'rik-tanlovining tuman bosqichida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Bu yutug'imizdan bir quvongan bo'lsak, tuman XTB boshlang'ich sinflar metodbirlashmasi tomonidan tanlovning viloyat bosqichiga tavsiya etilganimiz quvonchimizga quvonch qo'shdi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari D.Otaboyeva, S.Sultonova, G.Hakimova, D.Qosimova va boshqa ustozlar o'z mehnatlari samarasidan ruhlanib, tinimsiz izlanishga, bolajonlarga puxta bilim berishga, bundanda yuksak natijalarga erishishga intilmoqdalar. Buning uchun ilm maskanimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ustozlarimiz mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan samarali foydalanadi, o'quvchilar bilan birgalikda ko'rgazmali qurollar tayyorlab, dars jarayoniga tatbiq etib kelmoqda.

— Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan har bir dars quvnoq, qiziqarli va noan'anaviy bo'lishi kerak, — deydi boshlang'ich sinf o'qituvchisi M.Turg'unboyeva. — Ana shu uch xususiyatni o'zida jamlagan va ko'rgazmali vositalar bilan boyitilgan mashg'ulotga o'quvchi katta qiziqish bilan qatnashadi va mavzuni yaxshi o'zlashtiradi.

**N.G'ANIYEVA,**
**O'zbekiston tumanidagi 8-maktab o'qituvchisi**

# Ustozlardan mahorat saboqlari

O'quvchilar qalbiga o'ziga xos qiziqarli usullar bilan bilimlarni jo etayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shoira Karimova ko'p yillik ish tajribasiga ega.



Yashnobod tumanidagi 170-maktabda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun o'tkazilgan seminarda boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shoira Karimovaning ish tajribasi ommalashtirildi. Dastlab o'qituvchi «Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish» mavzusida taqdimot qildi. Taqdimotda ustoz sinfdan tashqari o'qish darslarida foydalaniladigan interfaol metodlar jamlangan metodik qo'llanmasi xususida gapirib, bu usullarni mashg'ulotlarida qo'llash tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

Tuman XTB boshlang'ich ta'lim fanlari metodisti N.Usmonova tomonidan tashkil etilgan seminarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qitishning noan'anaviy usullarini ishlab chiqish, bunda ko'p yillik pedagogik stajga ega ustozlarning tajribasini keng ommalashtirish, yoshlarga bugungi kun talabidan kelib chiqib bilim berish masalalari yuzasidan fikr bildirdilar.

Seminarda tuman ta'lim muassasalaridagi yosh pedagoglar ko'p yillik tajribaga ega, metodik tavsiya va dars ishlanmalar yaratgan ustozlardan mahorat saboqlarini oldilar.

**Munisa SHOKIROVA,**
**170-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Muhtaram Majid Samadovich!**



60 yoshingiz muborak bo'lsin!

Tavallud ayyomingiz bilan qutlash sharafiga muyassar bo'lganimizdan mamnunmiz. Siz qator yillardan buyon turli ta'lim maskanlarida, ilm-fan o'chog'i bo'lmish maktabda yosh avlodga tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridan saboq berib kelmoqdasiz. Jonkuyarligingiz va mehribonligingiz tufayli Kitob tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasi va o'quvchilar hurmatini qozondingiz. Sizning mehnatsevarligingiz sababli, ko'plab o'quvchilar tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridan tuman, viloyat fan olimpiadalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Maktabimiz o'qituvchi va murabbiylari Siz bilan doim faxrlanishadi.

Sizga uzoq umr, mustahkam sog'liq, oilaviy baxt tilaymiz!

**Hurmat va ehtirom bilan hamkasblaringiz, farzandlaringiz va shogirdlaringiz.**

*Axmatjanov Ravshanjon Nematjonovichning 05.08.06 — G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish ixtisosligi bo'yicha «Kompozitsion yonilg'ilardan foydalanib benzin dvigatelli avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.09.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 8-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

*Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 20-uy.*
*Tel/faks: (71) 232-14-39; e-mail: tadi_info@edu.uz.*

*Abdullayev Botir Inatovichning 05.08.06 — G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish ixtisosligi bo'yicha «Shahar avtobus yo'nalishlarida transport xizmati sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirish» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.09.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 8-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

*Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 20-uy.*
*Tel/faks: (71) 232-14-39, e-mail: tadi_info@edu.uz*

*G'ofurov Jasur Isaqovichning 07.00.06 — Arxeologiya ixtisosligi bo'yicha «Usturshonaning ilk o'rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologik manbalar asosida)» mavzusidagi (tarix fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tar.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

*Manzil:100079, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy.*
*Tel/faks: (71) 233-46-02; e-mail: uzarchae@academy.uz*

*Alimova Durdona Dilmuratovnaning 14.00.04 — Otorinolaringologiya ixtisosligi bo'yicha «Bolalarda surunkali rinosinusitlarni tashxislash va davolashni takomillashtirish» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

*Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.*
*Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru*

*Ibragimova Feruza Ikromovnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha «Sun'iy yuvish va tozalash vositalarini ishlab chiqarish korxonalari ishchilarida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati va parodont to'qimasi kasalliklarining kechish xususiyatlari va davolash chora-tadbirlari» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

*Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.*
*Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru*

*Xo'jamov Jo'rabek Nayimovichning 06.02.03 — Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha «Turli zot va zotdorlikdagi sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti va Samarqand veterinariya meditsinasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.08.2018. QX.75.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 31-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

*Manzil: 140154, Samarqand shahri, Ulug'bek ko'chasi, 47-uy.*
*Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti.*
*Tel: (66) 233-32-79, 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru*

# Salomatlik — bebaho boylik!

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

*Pol Breggning kitobi "Parhez mo'jizasi" deb nomlanganiga qaramay muallif "parhez — salomatlikning asosiy omili" degan gapga yopishib olmaydi. Holbuki, hozirgi kunda ayrim kishilar o'zlarining qiziqishidan kelib chiqib, "yugurish — salomatlik garovi", "suzish — sog'liq manbayi", "salomat bo'lay desang, mehnat jarayonida 5–10 daqiqa gimnastika mashqlarini bajar" kabi gaplarni takrorlashdan charchashmaydi. To'g'ri, yugurish ham, suzish ham, gimnastika ham salomatlikni mustahkamlaydi. Biroq ular ham parhez singari salomatlikni mustahkamlashning bitta omili xolos. Chunki odam mukammal mavjudot, uning salomatligini tiklash va mustahkamlash oson hal bo'ladigan jarayon emas. Shuning uchun Pol Bregg kitobida salomatlikni yaxshilashga beminnat xizmat qiladigan tabiatning to'qqiz tabibi haqida fikr yuritadi.*

## Birinchi tabib — Quyosh



*Yer yuzidagi hayot Quyosh nuriga bog'liq. Quyosh nuri tushgan meva va sabzavotlar tanamiz uchun eng kerakli va to'yimli ozuqadir. Tong Quyosh nuridan bahra olishning eng qulay vaqti. Soat 10 dan 16 gacha tanaga salbiy ta'sir qiluvchi nurlar bo'lishini unutmang.*

Pol Bregg 16 yoshida sil kasaliga chalingan, unga doktorlar "Davolash mumkin emas" tashxisini qo'yishgan. U Alp tog'larida Quyosh nurida davolangan, Quyosh nuri tushgan meva va sabzavotlarni yegan va ikki yil ichida o'limga mahkum etilgan bemordan kuch-quvvatga to'lgan baxtli insonga aylangan.

Biz serquyosh yurtda yashaymiz. O'zimizga ham, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ham Quyosh nurlarini beminnat sochadi. Shunday ekan bizning kasal bo'lishga haqqimiz yo'q. Agar kasal bo'lsak, bu Quyosh atalmish tabib xizmatidan foydalanmayotganimizni ko'rsatadi.

## Ikkinchi tabib — sof havo

*Havo ko'zga ko'rinmas ovqat bo'lib, usiz 5–7 daqiqadan ko'p yashay olmaymiz. Biz havodan nafas olib, hujayralarimizga kerakli kislorodni o'zlashtiramiz. Har kuni sof havoda sayr qilishga imkon toping, chuqur nafas oling, yuguring, suzing, raqsga tushing, ishqilib tanangizda ortiqcha karbonat angidrid to'planishiga yo'l qo'ymang.*

Pol Bregg Hindistonda 126 yoshga kirgan kishini uchratadi. U har doim chuqur nafas olish mashqini bajargani uchun jismoniy va aqliy qobiliyati yaxshi ekanligini aytgan. Yuz yoshdan oshgan tanishi esa piyoda sayr qilgani va chuqur nafas olgani uchun sog'lom ekanligini ta'kidlagan.




Endi o'zingiz o'ylab ko'ring. Tonggi sof havoda, Quyosh nuri ostida piyoda sayr qilgan foydalimi yoki diqqinafas xonada terlab-pishib trenajorda shug'ullanishmi? Javobda ikkilansangiz, keyingi tabiblarga oid ma'lumotlarni o'qing.

## Uchinchi tabib — toza suv



*Toza suv yaxshi tabib va qadrdon do'stdir. Axir, odam vaznining 70 foizini suv tashkil qiladi. Shu bois, tanamizdagi suv miqdorini me'yorida ushlab turishimiz kerak. Suzish eng yaxshi mashqlardan biri bo'lib, yurak va mushak faoliyatini yaxshilaydi. Qadimdan suv vositasida ko'p kasalliklar davolangan.*

Pol Bregg parhezga rioya eta boshlagan davrdan boshlab, faqat sof suv ichgan va havzalarda suzishni kanda qilmagan.

Suv — hayot manbayi, deya bejiz aytilmaydi. Biz bu hayot manbayidan unumli foydalanishni unutmasligimiz lozim. Yurtimizda toza suv yetarli, tabiiy suv havzalaridan tashqari joylarda yangidan-yangi basseynlar barpo etilmoqda.

## To'rtinchi tabib — tabiiy ovqat

*Tanamizda har soniyada hujayralar o'ladi va yangilari paydo bo'ladi. Yangilari esa ayrim moddalarsiz vujudga kelmaydi. Ana shu kerakli moddalarni faqat tabiiy ovqatlardan olish mumkin. Odamzod fan-texnikada mo'jizalar yaratdi, yaratmoqda, ammo tabiiy ovqatlanishning eng oddiy qoidalariga rioya etsa, bundan-da ulug'vor ishlarni bajarardi.*

Pol Bregg odamlarga 60 foiz tabiiy ovqatni tavsiya etgan, o'zi esa faqat tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilgan. Hatto tuz ham ishlatmagan, uning o'rniga ko'katlardan foydalangan.

Tabiiy ovqatga birgina oddiy misol keltirish bilan kifoyalanamiz. Temir organizm uchun eng kerakli modda. Lekin temirning kukunini ham yeb bo'lmaydi. Chunki organizm minerallarni faqat organik holatda, ya'ni tabiiy ovqatlardan o'zlashtiradi.



## Beshinchi tabib — parhez

*Bilim va tajribaga asoslanib amal qilingan parhez tanaga dam beradi, oshqozon, jigar, buyrak, yurak va boshqa a'zolarning faoliyatini yaxshilaydi. Payg'ambarlar ham ruhiy poklikka erishish uchun parhez saqlaganlar. Pifagor(taxminan miloddan avvalgi 580–500-yillar) o'z falsafasi sirlarini shogirdlariga o'rgatishdan oldin ulardan 40 kun to'liq parhez saqlashni talab qilgan.*

Pol Bregg har haftada bir kun, uch oyda 7–10, yarim va bir yilda 14–21 kunlik parhez saqlagan. Umrining oxirgi 50 yilida umuman nonushta qilmagan.

Ovqat yemaslik parhez degani emas. Parhez ham ilm. Shu bois, mutaxassislar bilan maslahatlashgan holda parhezga kirishing. Shundagina kutilgan natijaga erishasiz. Chunki parhezdan keyin qanday ovqatlarni yeyish muhim ahamiyatga ega.

## Oltinchi tabib — jismoniy tarbiya

*Kundalik jismoniy mashqlar tanani chiniqtiradi, chidamlilik qobiliyatini oshiradi, kasallanishning oldini oladi, bevaqt keksayishdan asraydi. Mashg'ulotingizga mushaklar faoliyatini yaxshilaydigan mashqlarni ko'proq qo'shing. Ko'krak qafasi, qorin, bel va yelka mushaklarini pishiting. Bu bilan siz yurak, o'pka, jigar, oshqozon, buyrak va boshqa a'zolarning faoliyatini yaxshilaysiz.*

"Yurish — mashqlar podshohi, — der edi Pol Bregg jismoniy mashq bo'yicha maslahat so'raganlarga. — Vaqt o'tishi bilan masofani uzaytiring va tezlikni oshirib boring". O'zi bu maslahatga amal qilardi va boshqa jismoniy mashqlarni ham muntazam ravishda bajarardi.

Harakat huzurbaxsh baxt ekanini yotib qolgan bemorlar yaxshi bilishadi. Siz ham shunday holga tushmaslik uchun salomat vaqtingizda harakat qiling, jismoniy mashqlar bajaring, iloji bo'lsa biror sport turi bilan havaskorlik darajasida shug'ullaning.



## Yettinchi tabib — dam olish



*Dam olish asab tizimini tinchlantiradi, tanada qon aylanishini me'yorlashtiradi. Agar dam olayotganingizda quyosh nurlari tushsa, yanada yaxshi. Chunki quyosh nuri mushaklarni bo'shashtirib, asab tizimi tinchlanishini tezlashtiradi. Bunday paytda turmush tashvishlari, muammo va hayajonli voqealarni eslamang. Barcha tashvishlarni unutib, o'tirgan yoki yotgan holda shunday dam olishdan tortinmang. Shunday dam olish organizmingiz uchun kerak.*

Pol Bregg dam olish payti qon aylanish tizimi yaxshilanishiga jiddiy e'tibor qaratardi. Hatto bir oyoq tizzasiga ikkinchi oyoqni qo'ymaslikni maslahat berardi. Bu qon tomirlarini qisib, tanada qon aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## Sakkizinchi tabib — qaddi rasolik

*Umurtqa pog'onasida og'riq paydo bo'lishi insonning ikki oyoqda turish va yurish imtiyoziga xo'jasizlarcha yondashgani uchun berilgan jazodir. To'g'ri ovqatlansangiz va gavdangizni asrasangiz, bunday muammoga duch kelmaysiz. Chunki tana kerakli narsalarni olmasa, qomat buziladi. Bundan tashqari, qaddi rasolikni ta'minlaydigan maxsus mashqlar bajaring.*



Bu borada ham Pol Bregg oddiy tavsiyalarni beradi: O'tirgan vaqtingizda umurtqa pog'onangiz to'g'ri, qorningiz tortilgan, yelkangiz yozilgan va boshingiz ko'tarilgan bo'lishi kerak. Yurgan mahali qomatingizni rostlab, ko'z qiringiz ko'kragingiz yuqori qismidan o'tib tushgan joyga qadam tashlang. Bunday qadam tanada quvvat ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Nega chinor 1000–2000 yil yashaydi? Mag'rur turgani uchun! Siz ham bukchayib, bo'shashib yurishni bas qiling, qomatingizni rostlang. Shunda siz ham chinor kabi yuz yillarni pisand qilmaysiz.

## To'qqizinchi tabib — tafakkur

*Tafakkur tanani boshqarishi kerak. Ko'pchilik ijobiydan ko'ra salbiy natija haqida o'ylashga moyil. Har bir ishda ijobiy natijani ko'zlash muvaffaqiyat garovidir. Aksincha, oldindan salbiy xulosaga kelsangiz, omadsizlikni o'zingiz chaqirgan bo'lasiz. Shu bois, o'zingizda keng ma'nodagi ijobiy ma'naviyatni shakllantirishingiz zarur.*

Pol Bregg deydi: Salomatligingizga foyda keltiradigan tomonni ko'zlab fikr qiling. Bu ma'naviyatingiz uchun juda kerak. Agar siz shunga qat'iy amal qilsangiz, ruhingiz tetik, tafakkuringiz tiniq va tanangiz sog'lom bo'ladi.

***Salomat bo'lishning maqsad-mohiyatini aytishga ham fursat yetdi. Shu o'rinda qadimiy yunonlarning hikmatini eslashimiz joiz: "Sog'lom tanda — sog' aql". Ha, sog'lom tandagina sog' aql bo'ladi. Sog' aql esa insoniyat taraqqiyoti, foydasi uchun ezgu ishlarni amalga oshiradi. Ma'rifatparvarimiz Abdulla Avloniy (1878–1934) esa shunday sharhlaydi: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad zarurdir". Hozirgi kunda butun tanani va uning ayrim a'zolari faoliyatini yaxshilash borasida ko'plab kitoblar bor. Ularni ham o'qishimiz, o'qitishimiz, o'rganishimiz va o'rgatishimiz kerak. Chunki insonga dunyoda salomatligidan bebaho boylik yo'q. Shu boylikni ko'z qorachig'iday asrash va ko'paytirish uchun dunyodagi barcha bilimdan va amaliy tajribalardan foydalanishimiz lozim. Zero, Pol Bregg yozganidek: "Har bir inson o'zi, yaqinlari va Vatani uchun umrini uzaytirishga intilishi shart".***

Asror MO'MIN,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist

Qizlar sporti

# Jahon bilan yuzlashayotgan Jahona

25-26-aprel kunlari Toshkent shahrida taekvondo ITF bo‘yicha o‘smirlar va kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan O‘zbekiston chempionatida o‘z vazn toifasida mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritgan Jahona Husanboyeva uchinchi bor mamlakat chempioniga aylandi. Endilikda bu sportchi qiz shu yilning 26—30-iyun kunlari Qirg‘iziston Respublikasida bo‘lib o‘tadigan Osiyo chempionatida qatnashadi.

Bugun 20 yoshni qarshilagan Jahona taekvondo bilan 9 yildan buyon muntazam shug‘ullanadi. O‘tgan vaqt davomida uning irodasi turli sinovlarda toblandi.

Jahona Husanboyeva Angren shahrining so‘lim go‘shalaridan biri — Krasnogorsk shaharchasida tug‘ilgan. Bu yerning toza havosi-yu zilol suvlari, vitaminlarga boy mevalari har qanday kishining kuchiga kuch qo‘shishi shubhasiz. Balki qahramonimizning doim yaxshi kayfiyatda, tetik yurishining siri ham shundadir.

— Bolaligimdan tiyrak va harakatchan qiz bo‘lganman, — deydi qahramonimiz suhbat jarayonida. — Ammo meni ushbu sport turiga qiziqtirgan ham, qo‘llarimdan tutib, birinchi murabbiyim Hikmatilla Ahmedovning yoniga olib borgan ham onam Basibu Po‘latova bo‘ladi. Avvaliga mashg‘ulotlarga shunchaki havas uchun borardim. Ammo keyin ichki musobaqalarda ishtirok etib, qo‘lga kiritgan natijalarim o‘zimni ham, ustozimni ham qoniqtirgach, jiddiy shug‘ullana boshladim. Birinchi murabbiyim meni doim o‘g‘il bolalar bilan shug‘ullantirardilar. Maydonda ular bilan tengma-teng sparring tushardim. Hatto jang vaqti hushimdan ketib qolgan paytlarim ham bo‘lgan. Ammo bu qiyinchiliklar foydamga ishladi. Sport meni irodali va yengilmas qilib tarbiyaladi. Agar murabbiyim shunday qattiqqo‘l va talabchan bo‘lmaganida bugungi natijalarga erishmagan bo‘lardim. Chunki sportda, ayniqsa, taekvondoda ko‘ngilchanlik yaramaydi.




Taekvondoning ham o‘z qonun-qoidalari bor. Ushbu sport turida erkak va ayollar belgilangan maydonchada o‘z vazn toifalarida yakkama-yakka olishish va maxsus mashqlarni bajarish mahoratini namoyish etish bo‘yicha yakka va jamoaviy tarzda oyoq-qo‘llarda zarbalar berish yoki zarba harakatlarini qayd etish borasida musobaqalashadi. Taekvondo musobaqalari ikki yo‘nalish — ITF (Xalqaro taekvondo federatsiyasi) va WTF (Jahon taekvondo federatsiyasi) bo‘yicha tashkil etiladi. Taekvondoning ITF yo‘nalishiga 1955-yili asos solingan bo‘lib, yurtimizda bu sport turi 1989-yildan ommalasha boshlagan.

Sportchining ikki toifasi bor — biri havaskor, ikkinchisi professional. Jahona Husanboyeva allaqachon professional sportga qadam qo‘yib, eng yuqori cho‘qqi tomon olib boradigan zinalarni birin-ketin, sabr bilan bosib o‘tmoqda. Xususan, qahramonimiz 2013-yili Farg‘ona viloyatida o‘tgan xalqaro turnirda 3-o‘rin, 2016-yili Andijonda o‘tgan ochiq chempionatda 1-o‘rinni egalladi. Uning Osiyo chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritishi esa yaqinlari va murabbiylariga chinakam quvonch hadya etdi.

Jahona bu g‘alabalarga o‘z-o‘zidan erishgani yo‘q. Sportga qadam qo‘ygan ilk kundan boshlab oila a’zolari, xususan, otasi Faxriddin Husanboyev uni doim qo‘llab-quvvatladi. Onasi hamisha qizining yonida turib, yutuqlarini ham, mag‘lubiyatini ham birga baham ko‘rdi, unga ruhan dalda berdi.

— Har gal musobaqa oldidan onamga qo‘ng‘iroq qilganimda, maslahatlar berib, menda g‘alabaga bo‘lgan ishonch va qat’iyat uyg‘otadi, — deydi Jahona Husanboyeva. — Ularning ishonchlari musobaqa vaqti menga katta kuch beradi.

Sportchining g‘alabalari zamirida, shubhasiz, ustozining mehnatlari yotadi. Jahonaning hozirgi kundagi murabbiyi Suhrob Asomiddinov ham unga taekwondo sirlarini o‘rgatish bilan birga, doim sabrli va har qanday vaziyatga ruhan tayyor bo‘lish lozimligini ta’kidlaydi. “Sportchi yiqildimi, albatta qayta tura olishi kerak”, deb uqtiradi. Mehribon, kezi kelganda qattiqqo‘l va talabchan ustoz Jahonani o‘z xatolaridan xulosa chiqarib, kelgusida takrorlamaslikka o‘rgatdi.

Jahona sportdan tashqari raqs hamda tikuvchilikka qiziqadi. Oshxonada mazali taomlar tayyorlab, yaqinlarini xursand qilishni yoqtiradi. Ammo asosiy vaqtini sport mashg‘ulotlarida o‘tkazadi. U hayotini sportsiz tasavvur etolmaydi. Har kuni tongni yugurish va jismoniy mashqlar bilan boshlashga odatlangan. Hatto bir kun sportdan uzoqlashsa, o‘zini holdan toygandek his qiladi. Jahonada chinakam sportchiga xos jihatlarning bari mujassam. Bugun uning ham ruhan, ham jismonan tetikligiga barchaning havasi keladi. Qahramonimizning o‘zi ham doim sport uni sabrli, irodali, harakatchan va maqsadi sari intiladigan qiz qilib tarbiyalaganini ta’kidlaydi.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Ma’rifat” muxbiri**

# Temurbek izdoshlari

Hazorasp tumani mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotida Yoshlar ittifoqi tuman kengashi tomonidan umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Temurbeklar” harbiy-sport musobaqasining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi.

O‘quvchi-yoshlarni Qurolli Kuchlar safiga, harbiy xizmatga va oliy harbiy ta’lim muassasalariga tayyorlash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida o‘tkazilgan bellashuvda ishtirokchilar zukkolik, epchillik va chaqqonlikka qaratilgan shartlar asosida bilim va mahoratini sinovdan o‘tkazdi.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bahslar yakunida 3-o‘rin 11-, 2-o‘rin 17-maktab jamoalariga nasib etgan bo‘lsa, 1-o‘rinni 5-maktab o‘quvchilari qo‘lga kiritdi. Shuningdek, “Eng jasoratli ishtirokchi (o‘g‘il bola)”, “Eng jasoratli ishtirokchi (qiz bola)”, “G‘alabaga bo‘lgan ishtiyoqi uchun” nominatsiyalari bo‘yicha ham g‘oliblar aniqlanib, Yoshlar ittifoqi tuman kengashining faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

**Oybek RAHIMOV,**
**Hazorasp tumanidagi**
**17-maktabning chaqiruvga qadar boshlang‘ich**
**tayyorgarlik fani o‘qituvchisi**

# Ajdodlarni xotirlash — muqaddas qadriyat!

Favqulodda vaziyatlar vazirligi qoshidagi “Qamchiq” maxsus qidiruv-qutqaruv boshqarmasining bir guruh xizmatchilari va ularning oila a’zolari uchun “Ajdodlarni xotirlash — muqaddas qadriyat” shiori ostida poytaxtimizdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qurolli Kuchlar qoshidagi “Jasorat” muzeyi hamda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasiga ekskursiya tashkil etildi.

Sayohatga boshqarma boshlig‘ining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari, mayor Sh.Abdullayev boshchilik qildi. Ekskursiya davomida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari muzeylar tarixi va faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasida esa mehmonlarga O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan “Meros va hozirgi zamon” jurnali sovg‘a qilindi.

— Bugungi ekskursiyaga nafaqat harbiylar, balki ularning oila a’zolarini ham taklif etganimiz bejiz emas, — deydi mayor Sh.Abdullayev. — Chunki bunday sayohatlar harbiy xizmatchilar qatori ularning o‘sib kelayotgan farzandlari — yosh avlodni Vatanga sadoqat, ona yurtiga va ajdodlari xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk bobokalonlari kabi mard va jasur insonlar bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Maroqli va taassurotlarga boy o‘tgan ekskursiyadan ishtirokchilar o‘zlari uchun qiziqarli ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ldi.

**X.BOBONOV,**
**“Qamchiq” maxsus qidiruv-qutqaruv**
**boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik**

# Loqayd bo‘lmaylik!

Dunyoda turli kasblar bor. Ularning har biri o‘ziga yarasha mashaqqatlarga ega. Shunday soha vakillari borki, ular hamisha insonlarning xavfsizligini ta’minlash bilan birga, ularning mol-mulki va hayotini saqlash mas’uliyati bilan yashaydi. Bu — yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlaridir.

Bugun uyma-uy yurib, xonadonlardagi isitish va elektr moslamalarining holatini tekshirib, fuqarolarga yong‘in xavfsizligi qoidalari bo‘yicha tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berayotgan fidoyi kasb egalarining maqsadi bitta — aholi tinchligi hamda xavfsizligini ta’minlash.

Ammo olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlarga qaramay, hamon insonlarning gaz va elektr uskunalaridan noto‘g‘ri foydalanishi, bolalarni o‘t chiqaruvchi vositalar bilan qarovsiz qoldirishi, bir so‘z bilan aytganda, e’tiborsizligi natijasida turarjoylarda katta-kichik yong‘inlar kelib chiqayotgani achinarli hol. Ayniqsa, ayrimlarning yerto‘la va chordoqlarda benzin, kerosin, aseton va boshqa tez alanga oluvchi suyuq moddalarni saqlashi o‘zi va qo‘ni-qo‘shnilari hayoti, mol-mulkiga xavf solmoqda.

Aziz hamshaharlar! Yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarga befarq bo‘lmang. O‘zingiz va yaqinlaringiz xavfsizligi uchun yong‘in xavfsizligi xodimlari tomonidan berilgan tavsiya va ko‘rsatmalarga amal qiling. Shundagina yurtimiz tinchligi va osoyishtaligiga o‘z hissangizni qo‘shgan bo‘lasiz.

**A.ASHIROV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**
**Administratsiyasi**
**binosini yong‘indan muhofaza qiluvchi**
**YXB inspektori, leytenant**
**S.SAIDMURODOV,**
**Sergeli tuman YXB inspektori**

Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan 2019-yil aprel oyida Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida istiqomat qiluvchi, 1969-yil 3-yanvarda tug‘ilgan, hozirda Kitob tumanidagi 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori lavozimida ishlovchi Alibekova Barno Raxmonovna nomiga “Umumta’lim muassasalari rahbarlarining xalq ta’limi sohasidagi menejerlik ko‘nikmalarini rivojlantirish kursi”ni muvaffaqiyatli tamomlaganligi haqida 578461 qayd raqami bilan berilgan MO483552 sonli sertifikat yo‘qolganligi bois

**BEKOR QILINADI.**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va «Til va adabiyot ta'limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching» jurnali
O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi Qonunining 30 yilligi hamda jurnalga asos solinganining 60 yilligi munosabati bilan

ENG FAOL FILOLOG-MUALLIM



(o'zbek, rus, xorijiy tillarda)
TANLOVINI *e'lon qiladi*




**Tanlovning maqsad va vazifalari:**
– ona tili va adabiyot, davlat tili, rus tili va xorijiy tillar hamda jahon adabiyotini o'qitish samaradorligini oshirish;
– faol, izlanuvchan muallimlarni rag'batlantirish;
– yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash;
– original va ilg'or pedagogik metodikalarni aniqlash va ommalashtirish.

**Talablar:**
– matn hajmi 8–10 bet;
– .doc formatidagi fayl;
– Times New Roman shriftida, 14 pt kegelda.
Matn oldidan muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy darajasi (agar bo'lsa), telefon va elektron manzili aniq ko'rsatilishi (imkoni bo'lsa, 3x4 sm o'lchamdagi surati) shart.

**G'oliblarni taqdirlash:**
1-oktabr – «O'qituvchi va murabbiylar kuni» umumxalq bayrami arafasida 3 ta 1-o'rin sohibi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan zamonaviy noutbuk hamda sovrindorlar «Til va adabiyot ta'limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching» ilmiy-metodik jurnalining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

**Tanlov shartlari:**
Maqola mavzusi tegishli fan bo'yicha umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi mavzulariga mos bo'lishi va quyidagi talablarga javob berishi kerak:
– ilg'or pedagogik tajribalar;
– namunali dars ishlanmalari;
– metodik tavsiya;
– ilmiy-pedagogik tadqiqotlar;
– adabiy taqvim.

**Eslatma:**
Tanlovda qatnashish uchun «Til va adabiyot ta'limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching» ilmiy-metodik jurnaliga obuna bo'lganligini tasdiqlovchi pochta kvitansiyasi (ishtirokchilar kvitansiyaning nusxasini jo'natadilar) bo'lishi talab etiladi.
Tanlovga jo'natilgan maqolalar o'zbek, rus, shuningdek, xorijiy tillarda qabul qilinadi, plagiat (ko'chirmachilik)ga tekshiriladi. Jo'natilgan materiallarga **«Tanlovga»** belgisi qo'yilsin.

Kvitansiya nusxasini yuborishni unutmang!

**Manzil:** 100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. «Til va adabiyot ta'limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching» ilmiy-metodik jurnali tahririyati. Maqolalarni *til_adabiyot@umail.uz, tiladabiyot@mail.ru* elektron manzillariga jo'nating.

Obuna indeksi 872

# Hayot ranglari suratlarda

Hayotimiz ranglarga boy. Har bir tuyg'uning o'z rangi, o'z tarovati bor. Toshkent Fotosuratlar uyida "Colibri" rassomchilik maktabi o'quvchilarining "Hayot ranglari" nomli ko'rgazmasini kuzatar ekansiz, bunga yana bir bor iqror bo'lasiz.

Bu ko'rgazma maktabning ilk ijodiy namoyishi bo'lib, 7 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalarning ishlaridan iborat. Ekspozitsiyaga qo'yilgan ishlar natyurmort, manzara janrlari, kubizm, modernizm yo'nalishlariga oid.

— "Colibri" rassomchilik maktabini 2018-yili Yozuvchilar uyushmasi tasarrufida ochganmiz. Maktabimiz xususiy bo'lib, rangtasvir, chizmatasvir, grafika, libos tarixi yo'nalishlarida boshlang'ich saboqlar berib boriladi. Imkoniyati cheklanganlar uchun bepul kurslar ham tashkil etilgan. Olib borilayotgan mashg'ulotlardan maqsad "yilt" etgan iste'dodi bor bolani qo'llab-quvvatlash, mehnatini yuzaga chiqarishdan iborat. Ko'rgazmada shogirdlarimning saksonga yaqin ijodiy ishlari namoyishga qo'yilgan, — deydi maktab asoschisi Maftuna Rahimova.

Maktab o'quvchilari yosh bo'lishiga qaramay, chizgan rasmlarida o'zgacha olam, did va nafosatni ko'rib, rassomlik "tilsiz" san'at ekanligiga iqror bo'ladi kishi.

Ko'rgazmada asarlari namoyish etilgan ishtirokchilarning har biriga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi. Ular orasida Yanguljan Sobirova, Azmiddin Husniddinov, Odina Qodirbekova, Daler Tojiboyev, Madina Po'latboyevaning ijodiy yutuqlari alohida ta'kidlandi.





**Maftuna OMONKELDIYEVA,**
**O'zJOKU talabasi**

Ma'rifat

**TA'SIS ETUVCHILAR:**
O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-3440. Tiraji 15906.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6416

"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

**MANZILIMIZ:**
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Tosheva, Faxriddin Rahimov.
**Navbatchi muharrir:** Nazokat Xolmetova.
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zA yakuni — 22.10 Topshirildi — 00.00 1 2 3 4 5 6